

“TASDIQLANGAN”

“Asia Alliance Bank”
aksiyadorlik-tijorat banki

Kuzatuv kengashi Raisi:

A. J. Karimov

K-62-son

“10” avgust 2026 y.

“RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Istiqbolli loyihalar Milliy agentligi

Direktorning birinchi o‘rinbosari:

V. Yu. Pak

POB40-1 son

“10” avgust 2026 y.

“TASDIQLANGAN”

“FREEDOM FINANCE” MChJ XK

Bosh direktori

Z. E. Karimov

“11” avgust 2026 y.

**CHET EL VALYUTASIDA IFODALANGAN OBLIGATSIYALARNING
EMISSIYASI RISOLASI**

“ASIA ALLIANCE BANK”
aksiyadorlik-tijorat banki

Identifikatsiya raqami berildi:

R U G O 1 P O B 4 O R 1

Foizli egasi yozilgan chet el valyutasida ifodalangan obligatsiya, hujjatsiz shaklda

200 000 (ikki yuz) dona miqdorida,

har birining nominal qiymati 100 (yuz) AQSH dollari,

umumiy hajmi 20 000 000 (yigirma million) AQSH dollari,

ochiq obuna orqali joylashtirish

Obligatsiyalarning ushbu chiqarilishi birinchi chiqarilishdir.

Tasdiqlangan “Asia Alliance Bank” ATB Kuzatuv kengashi tomonidan

“10” avgust 2026 y. K-62-son Bayonnoma,

“10” avgust 2026 y. K-62-son Bayonnoma

bilan qabul qilingan “Asia Alliance Bank” ATB Kuzatuv kengashining qarori asosida.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili va muloqot telefonlari: O‘zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Maxtumkuli ko‘chasi, 2A uy | tel.: +998 (71) 231 0000 | info@aalb.uz

Boshqaruv Raisi:

Abduazimov Kurbanov Abdurazimov o‘g‘li

(imzo)

Bosh hisobchi

Kurbanov Umar Sanjiddinovich

(imzo)

“10” avgust 2026 yil

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ ushbu qimmatli qog‘ozlar emissiyasi risolasidagi axborotning to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunining 61-moddasiga muvofiq, qimmatli qog‘ozlarni investitsiya obyekti sifatida tanlash va shunga muvofiq ushbu tanlovning oqibatlari investorning tavakkalchiliklaridir.

MUNDARIJA | СОДЕРЖАНИЕ

I.....	3
EMITENT TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT	3
СВЕДЕНИЯ ОБ ЭМИТЕНТЕ	3
II.	12
KELGUSI QIMMATLI QOG‘OZLAR CHIQARILISHINI MUOMALAGA KIRITISH SHARTLARI	12
УСЛОВИЯ ВВЕДЕНИЯ В ОБРАЩЕНИЕ ПРЕДСТОЯЩЕГО ВЫПУСКА ЦЕННЫХ БУМАГ	12
III.	30
EMISSIYA TO‘G‘RISIDAGI QO‘SHIMCHA MA’LUMOTLAR.....	30
ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ СВЕДЕНИЯ ОБ ЭМИССИИ	30
IV.....	35
EMITENTNING BOSHQARUV VA IJRO ORGANLARI TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOT	35
СВЕДЕНИЯ ОБ ОРГАНАХ УПРАВЛЕНИЯ И ИСПОЛНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНАХ ЭМИТЕНТА	35
V.....	44
EMITENTNING MOLIYAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI KO‘RSATKICHLARI	44
ПОКАЗАТЕЛИ ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЭМИТЕНТА	44
VI.....	58
YAKUNIY QOIDALAR.....	58
ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ.....	58
VII.	59
ILOVALAR.....	59
ПРИЛОЖЕНИЯ	59

I.	EMITENT TO'G' RISIDA MA'LUMOT	СВЕДЕНИЯ ОБ ЭМИТЕНТЕ
1.	Emitentning nomi: <i>(Emitentning to'liq va qisqargan nomi, jumladan, tashkiliy-huquqiy shakli).</i>	Наименование эмитента: <i>(полное и сокращенное наименование эмитента, включая организационно-правовую форму)</i>
	O'zbek tilida: To'liq: "Asia Alliance Bank" aksiyadorlik tijorat banki Qisqa: "Asia Alliance Bank" ATB Rus tilida: To'liq: Акционерно-коммерческий банк «Asia Alliance Bank» Qisqa: АКБ «Asia Alliance Bank» Ingliz tilida: To'liq: Joint-Stock Commercial Bank "Asia Alliance Bank" Qisqa: JSCB "Asia Alliance Bank" <i>(Keyingi o'rinlarda Bank/Emitent deb ataladi)</i>	На узбекском: Полное: "Asia Alliance Bank" aksiyadorlik tijorat banki Краткое: "Asia Alliance Bank" ATB На русском: Полное: Акционерно-коммерческий банк «Asia Alliance Bank» Краткое: АКБ «Asia Alliance Bank» На английском: Полное: Joint-Stock Commercial Bank "Asia Alliance Bank" Краткое: JSCB "Asia Alliance Bank" <i>(Далее – Банк/Эмитент)</i>
2.	Emitentning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar: <i>Ma'lumotlar xronologik tartibda keltiriladi.</i>	Следующие сведения о государственной регистрации эмитента: <i>Сведения приводятся в хронологическом порядке.</i>
a)	Davlat ro'yxatidan o'tgan sanasi va raqami. 15.08.2009-yildagi 79-son	Дата и номер государственной регистрации; №79 от 15.08.2009г
b)	Davlat ro'yxatidan qayta o'tish sanasi va raqami (qayta ro'yxatdan o'tish amalga oshirilgan bo'lsa). 20.09.2014-yildagi 79-son	Дата и номер перерегистрации (если перерегистрация имела место). №79 от 20.09.2014г
c)	Nomi o'zgargan bo'lsa, avvalgi barcha qisqargan va to'liq nomlari, shuningdek, o'zgartirilgan sanalar ko'rsatiladi.	Если наименование менялось, указываются все предыдущие сокращённые и полные наименования, а также даты их изменения.
	31.12.2011 – "ASIA ALLIANCE BANK" xususiy ochiq aksiyadorlik-tijorat banki ("ASIA ALLIANCE BANK" XOATB) "ASIA ALLIANCE BANK" ochiq aksiyadorlik-tijorat banki ("ASIA ALLIANCE BANK" OATB) deb qayta nomlandi. 20.09.2014 – "ASIA ALLIANCE BANK" ochiq aksiyadorlik tijorat banki ("ASIA ALLIANCE BANK" OATB) "ASIA ALLIANCE BANK" aksiyadorlik tijorat banki ("ASIA ALLIANCE BANK" ATB) deb qayta nomlandi. 2014-yildan keyin Bankning rasmiy nomi o'zgarmadi. 2025-yilda yuridik shaxsning firma nomi o'zgarmagan holda rebrending amalga oshirildi.	31.12.2011 — Частный открытый акционерно-коммерческий банк «ASIA ALLIANCE BANK» (ЧОАКБ «ASIA ALLIANCE BANK») переименован в Открытый акционерно-коммерческий банк «ASIA ALLIANCE BANK» (ОАКБ «ASIA ALLIANCE BANK»). 20.09.2014 — Открытый акционерно-коммерческий банк «ASIA ALLIANCE BANK» (ОАКБ «ASIA ALLIANCE BANK») переименован в Акционерно-коммерческий банк «ASIA ALLIANCE BANK» (АКБ «ASIA ALLIANCE BANK»). После 2014 года официальное наименование Банка не изменялось. В 2025 году был осуществлен ребрендинг без изменения фирменного наименования юридического лица.
d)	Agar emitent yuridik shaxs (shaxslar)ni qayta tashkil etish natijasida tashkil topgan bo'lsa, qayta tashkil etilgan shaxslar va (yoki) emitentlarning vorisi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.	Если эмитент создан в результате реорганизации юридического лица (лиц), указываются сведения о реорганизованных лицах и (или) о том, что эмитент является их правопреемником.
	Emitent yuridik shaxs (yuridik shaxslar) qayta tashkil etilishi natijasida tashkil etilmagan, qayta tashkil etilgan yuridik shaxslarning huquqiy vorisi hisoblanmaydi.	Эмитент не создан в результате реорганизации юридического лица (юридических лиц), не является правопреемником реорганизованных юридических лиц.
3.	Emitentning joylashgan joyi, telefon va faks raqamlari, rasmiy veb-sayt va elektron pochta ma'lumotlari.	Место нахождения эмитента, номера телефонов и факсов, адрес официального веб-сайта и электронной почты.
	Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Maxtumkuli ko'chasi, 2A uy	Адрес: Республика Узбекистан, 100047, г.Ташкент, Яшнабадский район, ул.Махтумкули, 2а.

	Telefon: +998 (71) 231-60-00 Veb-sayt: www.aab.uz Elektron pochta: info@aab.uz	Контакты: +998 (71) 231-60-00 Веб-сайт: www.aab.uz Электронная почта: info@aab.uz
4.	Emitent faoliyatining tavsifi:	Описание деятельности эмитента:
a)	Asosiy faoliyat turlari va biznes-model.	Основные виды деятельности и бизнес-модель.
	Asosiy faoliyat turlari: – yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish; – mijozlarning bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish; – yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlash; – hisob-kitob-kassa xizmatini amalga oshirish; – to‘lovlar va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish; – chet el valyutasi bilan operatsiyalar; – bank to‘lov kartalarini chiqarish, ularga xizmat ko‘rsatish va ekvayring; – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish; – banklararo bozorda mablag‘larni jalb etish va joylashtirish; – hujjatli operatsiyalar, shu jumladan bank kafolatlari, akkreditivlar va inkasso berish; – pul va valyuta bozorlaridagi operatsiyalar; – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq korporativ obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish; – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va Bank litsenziyasida nazarda tutilgan boshqa bank va moliyaviy xizmatlar. Bank biznes modelining qisqacha tavsifi: Bank sektori va raqamli texnologiyalarning yuqori rivojlanish salohiyatini hamda o‘z mijozlar bazasi tarkibini inobatga olib, Bank chakana biznes va KO‘Bni rivojlantirishga yo‘naltirilgan universal bank biznes modelini tanladi. Bankning biznes modelni tanlashdagi yondashuvi zamonaviy bank amaliyotini hisobga olgan holda biznes modelning quyidagi unsurlariga asoslanadi: – Mijozlarni chuqur o‘rganish va segmentlash asosida ular bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish; – Servis modelini (paketlash va narx belgilash yondashuvlarini) takomillashtirish hamda mahsulotlar turini kengaytirish; – Masofaviy xizmatlarni rivojlantirish va xizmat ko‘rsatish formatini o‘zgartirish orqali sotuv kanallari samaradorligini oshirish; – Marketing faoliyatini va brendning mavqeini mustahkamlashni rivojlantirish.	Основные виды деятельности: – привлечение денежных средств юридических и физических лиц во вклады (депозиты); – открытие и ведение банковских счетов клиентов; – кредитование юридических и физических лиц; – осуществление расчетно-кассового обслуживания; – проведение платежей и денежных переводов; – операции с иностранной валютой; – выпуск, обслуживание и эквайринг банковских платежных карт; – осуществление операций с ценными бумагами в случаях, предусмотренных законодательством; – привлечение и размещение средств на межбанковском рынке; – документарные операции, включая выдачу банковских гарантий, аккредитивов и инкассо; – операции на денежном и валютном рынках; – выпуск и обслуживание корпоративных облигаций и иных долговых ценных бумаг в соответствии с законодательством Республики Узбекистан; – иные банковские и финансовые услуги, не запрещенные законодательством Республики Узбекистан и предусмотренные лицензией Банка. Краткое описание бизнес-модели банка: Учитывая высокий потенциал развития банковского сектора и цифровых технологий, структуру собственной клиентской базы банка, Банк выбрал бизнес-модель универсального банка с уклоном развития розничного бизнеса и МСБ. Подход банка при выборе бизнес-модели основывается на элементы бизнес-модели с учетом современной банковской практики: – Развитие взаимоотношения с клиентами на основе глубокого изучения и сегментации; – Совершенствование сервисной модели (подходы к пакетированию и ценообразованию) и расширение продуктовой линейки; – Повышение эффективности каналов продаж посредством развития дистанционных услуг и изменения формата обслуживания; – Развитие маркетинговой деятельности и позиционирования бренда.
b)	Faoliyat yuritiladigan bozorlar.	Рынки, на которых осуществляется деятельность.
	Emitent O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil 25-dekabrda 79-son litsenziyasi asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida bank faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat banki hisoblanadi.	Эмитент является коммерческим банком, осуществляющим банковскую деятельность на территории Республики Узбекистан на основании лицензии Центрального банка Республики Узбекистан № 79 от 25 декабря 2021 года.
c)	Guruh tuzilmasi (mavjud bo‘lgan taqdirda), shu jumladan sho‘ba va bosh tashkilotlar.	Структура группы (при наличии), включая дочерние и головные организации.

	“Alliance Lizing” MChJ – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq moliyaviy lizing sohasida faoliyat yurituvchi sho‘ba lizing kompaniyasi.	ООО «Alliance Lizing» – дочерняя лизинговая компания, осуществляющая деятельность в сфере финансового лизинга в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.
5.	Aktivlar va operatsiyalar:	Активы и операции:
a)	To‘lov qobiliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan aktivlar tavsifi.	Описание активов, существенно важных для платёжеспособности.
	Bankning to‘lov qobiliyatini ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan aktivlarga yuqori likvidli aktivlar, kredit portfeli, moliyaviy aktivlar va Bank faoliyatining asosini tashkil etuvchi boshqa aktivlar kiradi. Bankning to‘lov qobiliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy aktivlarga quyidagilar kiradi: – bankning joriy majburiyatlari bajarilishini ta‘minlovchi pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari, shu jumladan kassadagi pul mablag‘lari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa moliya tashkilotlaridagi vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar; – bank mablag‘larini joylashtirishning asosiy yo‘nalishi va foizli daromadlar olish manbai bo‘lgan kredit portfeli. Kredit portfelining sifati Bankning moliyaviy holati, barqarorligi va to‘lov qobiliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi; – bank tomonidan likvidlikni boshqarish va vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini samarali joylashtirish maqsadida foydalaniladigan moliyaviy aktivlar, shu jumladan qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar va boshqa moliyaviy vositalar; – bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan boshqa aktivlar. Bank aktivlarning sifati, ularning likvidliligi va daromadlilik darajasi ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi hamda aktivlar qiymatining pasayishi bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish choralari ko‘radi. Aktivlarni boshqarish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlariga va Bankning likvidlik va to‘lov qobiliyatining zarur darajasini saqlab turishga qaratilgan ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.	К активам, существенно важным для обеспечения платежеспособности Банка, относятся высоколиквидные активы, кредитный портфель, финансовые активы и иные активы, формирующие основу деятельности Банка. К основным активам, имеющим существенное значение для платежеспособности Банка, относятся: – денежные средства и их эквиваленты, включая денежные средства в кассе, средства на корреспондентских счетах в Центральном банке Республики Узбекистан и других финансовых организациях, обеспечивающие выполнение текущих обязательств Банка; – кредитный портфель, являющийся основным направлением размещения средств Банка и источником получения процентных доходов. Качество кредитного портфеля оказывает существенное влияние на финансовое состояние, устойчивость и платежеспособность Банка; – финансовые активы, включая инвестиции в ценные бумаги и иные финансовые инструменты, используемые Банком в целях управления ликвидностью и эффективного размещения временно свободных денежных средств; – прочие активы, возникающие в процессе осуществления банковской деятельности. Банк осуществляет постоянный контроль за качеством активов, уровнем их ликвидности и доходности, а также принимает меры по управлению рисками, связанными с возможным снижением стоимости активов. Управление активами осуществляется в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан, нормативными документами Центрального банка Республики Узбекистан и внутренними документами Банка, направленными на поддержание необходимого уровня ликвидности и платежеспособности.
b)	Odatdagi xo‘jalik faoliyati doirasidan tashqari tuzilgan muhim shartnomalar (bitimlar).	Существенные договоры (сделки), заключённые за рамками обычной хозяйственной деятельности.
	Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sana holatiga ko‘ra, Bank o‘zining odatiy xo‘jalik faoliyati doirasidan tashqariga chiqadigan, Bankning moliyaviy ahvoliga, faoliyati natijalariga yoki chiqarilayotgan obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim shartnomalar (bitimlar) tuzmagan.	По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии Банк не заключал существенных договоров (сделок), выходящих за рамки его обычной хозяйственной деятельности, которые могли бы оказать существенное влияние на финансовое положение, результаты деятельности или исполнение обязательств Банка перед владельцами выпускаемых облигаций.
c)	Agar emitent tijorat banki bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi vakillik hisobvarag‘i ko‘rsatiladi.	Если эмитент является коммерческим банком, указывается его корреспондентский счёт в Центральном банке Республики Узбекистан.

	Emitentning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi vakillik hisobvarag'i: № 1030 1000 6000 0109 5001	Корреспондентский счёт Эмитента в Центральном банке Республики Узбекистан: № 1030 1000 6000 0109 5001
6.	Tartibga solish maqomi:	Регуляторный статус:
a)	Qo'llaniladigan tartibga solish rejimi.	Применяемый регуляторный режим.
	Emitent faoliyatni va ushbu obligatsiyalar chiqarilishini bir vaqtning o'zida bir nechta tartibga solish rejimlarini qo'llash sharoitida amalga oshiradi: Korporativ-huquqiy maqomi: Asosiy qonunlar — O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. Tartibga soluvchi organ — aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish hamda nazorat qilishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Bank bozori: Asosiy qonun — O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. Tartibga soluvchi organ — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bo'lib, uning vakolatiga bank faoliyatini litsenziyalash, majburiy prudensial normativlarni belgilash va ularga rioya etilishini nazorat qilish kiradi. Ushbu qimmatli qog'ozlar chiqarilishining maxsus huquqiy rejimi: Valyuta obligatsiyalarining ushbu chiqarilishi "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida xorijiy valyutada ifodalangan obligatsiyalarni chiqarish, joylashtirish, muomalaga chiqarish va so'ndirish tartibi to'g'risidagi nizomga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda PQ-254-son qaroriga muvofiq "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida amalga oshiriladi.	Эмитент осуществляет деятельность и настоящий выпуск облигаций в условиях одновременного применения нескольких регуляторных режимов: Корпоративно-правовой статус: Основные законы — Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» и Закон Республики Узбекистан «О рынке ценных бумаг». Регулирующий орган — Национальное агентство перспективных проектов Республики Узбекистан, осуществляющее регулирование и надзор за деятельностью акционерных обществ и рынком ценных бумаг. Банковский рынок: Основной закон — Закон Республики Узбекистан «О банках и банковской деятельности». Регулирующий орган — Центральный банк Республики Узбекистан, в компетенцию которого входят лицензирование банковской деятельности, установление обязательных пруденциальных нормативов и контроль за их соблюдением. Специальный правовой режим настоящего выпуска ценных бумаг: Настоящий выпуск валютных облигаций осуществляется в рамках специального правового режима «Регуляторная песочница» в соответствии с Положением о порядке выпуска, размещения, обращения и погашения облигаций, номинированных в иностранной валюте, в рамках специального правового режима «Регуляторная песочница» и Указом Президента Республики Узбекистан от 18 декабря 2025 года № УП-254.
b)	Emitent faoliyati uchun zarur bo'lgan litsenziyalar, ruxsatnomalar yoki kelishuvlarning mavjudligi va muddati.	Наличие и срок действия лицензий, разрешений или согласований, необходимых для деятельности эмитента.
	Bank faoliyati: Litsenziya raqami – №79; Berilgan sanasi va amal qilish muddati – 2021-yil 25-dekabr, muddati cheklanmagan; Litsenziya bergan organ – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va muomalasi: Kapital bozori sohasida "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi ishtirokchisi sifatida. Qaror raqami – 66; Ro'yxatdan o'tgan raqami – 0017; Berilgan sanasi – 2026 yil 20 Iyul; Rejimda ishtirok etish muddati - muddatsiz;	Банковская деятельность: Номер лицензии – №79; Дата выдачи и срок действия – 25 декабря 2021 года, срок не ограничен; Орган, выдавший лицензию – Центральный банк Республики Узбекистан. Эмиссия и обращение ценных бумаг: В роли участника специального правового режима «Регуляторная песочница» в сфере рынка капитала. Номер решения – 66; Номер регистрации – 0017; Дата регистрации – 20 июля 2026 года; Срок участия в режиме – бессрочно;

	Vakolatli davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi.	Уполномоченный государственный орган – Национальное агентство перспективных проектов Республики Узбекистан.
7.	Xususiy kapital va aylanma mablag‘lar:	Собственный капитал и оборотные средства:
a)	Emitentning joriy sanadagi xususiy kapitali va qarzdorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.	Сведения о собственном капитале и задолженности эмитента на текущую дату.
	Bankning xususiy kapitali O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq shakllantirilgan bo‘lib, ustav kapitali, xazira kapitali, o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), joriy davrdagi foyda (zarar), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida nazarda tutilgan boshqa kapital elementlarini o‘z ichiga oladi. Bankning mazkur obligatsiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi Kuzatuv kengashi qarori qabul qilingan sanadagi o‘z kapitali miqdori 1 324 709 946 747,40 so‘mni tashkil etadi. Bankning qarzi mijozlar oldidagi majburiyatlar, banklar va boshqa moliya institutlarining mablag‘lari, chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari, shuningdek, bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan boshqa majburiyatlar bilan ifodalanadi. Majburiyatlar tarkibi mijozlar mablag‘larining ustunligi bilan tavsiflanadi, bu esa tijorat banki faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladi. Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanadagi holatga ko‘ra, Bank kreditorlar, omonatchilar va boshqa kontragentlar oldidagi o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishda, chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikka ega emas hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kapital yetarliligi, likvidlik va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha me‘yoriy hujjatlari talablariga rioya qilmoqda. Bankning ko‘rsatilgan sanadagi jami majburiyatlari miqdori 9 055 753 865 so‘mni tashkil etadi.	Собственный капитал Банка сформирован в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан и включает уставный капитал, резервный капитал, нераспределенную прибыль (непокрытый убыток) прошлых лет, прибыль (убыток) текущего периода, а также иные элементы капитала, предусмотренные нормативными актами Центрального банка Республики Узбекистан и Международными стандартами финансовой отчетности. Размер собственного капитала Банка на дату принятия Решения Наблюдательного совета о выпуске настоящих облигаций составляет 1 324 709 946 747,40 сум. Задолженность Банка представлена обязательствами перед клиентами, средствами банков и других финансовых институтов, выпущенными долговыми ценными бумагами, а также иными обязательствами, возникающими в процессе осуществления банковской деятельности. Структура обязательств характеризуется преобладанием средств клиентов, что соответствует специфике деятельности коммерческого банка. По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии Банк своевременно исполняет свои обязательства перед кредиторами, вкладчиками и иными контрагентами, не имеет просроченной задолженности по выпущенным ценным бумагам и соблюдает требования законодательства Республики Узбекистан и нормативных актов Центрального банка Республики Узбекистан в части достаточности капитала, ликвидности и финансовой устойчивости. Размер обязательства Банка на указанную дату составляет 9 055 753 865 сум.
b)	Emitent kamida kelgusi o‘n ikki oy davomida o‘z majburiyatlarini bajarish uchun yetarli aylanma mablag‘larga ega ekanligini tasdiqlovchi bayonot.	Заявление о том, что эмитент располагает достаточными оборотными средствами для исполнения своих обязательств как минимум в течение следующих двенадцати месяцев.
	“Asia Alliance Bank” ATB o‘zining joriy faoliyatini amalga oshirish va o‘z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni, shu jumladan obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarni ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanadan boshlab kamida keyingi o‘n ikki oy davomida bajarish uchun yetarli aylanma mablag‘lar va likvidli aktivlarga ega.	АКБ «Asia Alliance Bank» располагает достаточными оборотными средствами и ликвидными активами для осуществления своей текущей деятельности и исполнения всех принятых на себя обязательств, включая обязательства перед владельцами облигаций, как минимум в течение следующих двенадцати месяцев с даты утверждения настоящего Проспекта эмиссии.

	Ushbu bayonot Bankning moliyaviy holati tahlili, pul mablag'lari harakati prognozi, aktivlar va majburiyatlar tarkibi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan majburiy iqtisodiy me'yorlarga rioya etilishini baholashga asoslangan. Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sana holatiga ko'ra, Bankka ko'rsatilgan davr mobaynida o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar ma'lum emas.	Настоящее заявление основано на анализе финансового положения Банка, прогнозе движения денежных средств, структуре активов и обязательств, а также на оценке соблюдения обязательных экономических нормативов, установленных Центральным банком Республики Узбекистан. По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии Банку не известны обстоятельства, которые могли бы оказать существенное негативное влияние на его способность своевременно исполнять обязательства в течение указанного периода.
8.	Emitentning bank rekvizitlari. Agar emitent tijorat banki bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi vakillik hisobvarag'i ko'rsatiladi.	Банковские реквизиты эмитента. Если эмитент является коммерческим банком, указывается его корреспондентский счёт в Центральном банке Республики Узбекистан.
	Bank: "Asia Alliance Bank" aksiyadorlik tijorat banki H/v: 2980 2000 0000 0109 5001 MFO: 01095 Bank STIRi: 207018693 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi vakillik hisobvarag'i: 1030 1000 6000 0109 5001	Банк: Акционерно-коммерческий банк «Asia Alliance Bank» P/c: 2980 2000 0000 0109 5001 в ОПЕРУ АКБ «Asia Alliance Bank» МФО: 01095 ИНН банка: 207018693 Корреспондентский счет в Центральном банке Республики Узбекистан: 1030 1000 6000 0109 5001
9.	Emitentning soliq organi nomi va STIR.	Наименование налогового органа и ИНН эмитента.
	Soliq organi: Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi STIR: 207 018 693	Налоговый орган: Межрегиональная налоговая инспекция по крупным налогоплательщикам ИНН: 207 018 693
10.	Davlat statistika organi tomonidan berilgan kodlar.	Коды, присвоенные органом государственной статистики.
	DBIBT:153 IFUT: 64190 THShT: 1150 MHOBT: 1726269	СООГУ: 153 ОКЭД: 64190 КОПФ: 1150 СОАТО: 1726269
11.	Mustaqil reyting bahosi. Emitentga reyting(lar) berilgan taqdirda, emitentga berilgan har bir reyting bo'yicha so'nggi 3 (uch) tugallangan hisobot yilli uchun quyidagilar ko'rsatiladi: <i>Bo'sh katakda emitent necha yillik ma'lumotlarni taqdim etayotganligi ko'rsatiladi.</i>	Независимая рейтинговая оценка. Если эмитенту присвоен (присвоены) рейтинг(и), по каждому присвоенному рейтингу за последние 3 (три) завершённых отчётных года указываются: <i>В пустой ячейке указывается, за сколько лет эмитент представляет сведения.</i>
a)	Joriy reyting to'g'risidagi ma'lumotlar.	Сведения о текущем рейтинге.
	Reyting agentligi: Moody's Ratings Reytingi: B1 Prognoz: Barqaror Tasdiqlangan sana: 2026-yil 3-iyul	Рейтинговое агентство: Moody's Ratings Рейтинг: B1 Прогноз: Стабильный Дата подтверждения: 3 июля 2026 года
b)	Hujjatlarni ro'yxatga olish uchun ro'yxatga oluvchi organga taqdim etish sanasigacha bo'lgan so'nggi 3 (uch) tugallangan hisobot yillari uchun reyting baholarining o'zgarish tarixi.	История изменений рейтинговых оценок за последние 3 (три) завершённых отчётных года до даты представления документов регистрирующему органу.
	2024-yilda Moody's xalqaro reyting agentligi Bankning uzoq muddatli reytingini B2 darajasida tasdiqladi va reyting prognozini "Barqaror" dan "Ijobiy"ga yaxshiladi. 2025-yilda Bankning uzoq muddatli reytingi "Barqaror" prognozi bilan B2 dan B1 ga oshirildi.	В 2024 году международное рейтинговое агентство Moody's подтвердило Банку долгосрочный рейтинг на уровне B2 и улучшило прогноз по рейтингу со «Стабильного» до «Позитивного». В 2025 году Банку был повышен долгосрочный рейтинг с B2 до B1 с прогнозом «Стабильный».

	2026-yilda Moody's xalqaro reyting agentligi Bankning uzoq muddatli reytingini "Barqaror" prognozi bilan B1 darajasida tasdiqladi.	В 2026 году международное рейтинговое агентство Moody's подтвердило долгосрочный рейтинг Банка на уровне B1 с прогнозом «Стабильный».
c)	Reyting bergan tashkilotning to'liq nomi, joylashgan yeri va aloqa ma'lumotlari.	Полное наименование, место нахождения и контактные данные организации, присвоившей рейтинг.
	Nomi: Moody's Investors Service Middle East Limited Joylashgan yeri: Dubay, BAA Aloqa uchun: +971 56 644 1174 Email: davis.macs@moodys.com Veb-sayt: moodys.com	Наименование: Moody's Investors Service Middle East Limited Местонахождение: Дубай, ОАЭ Контакты: +971 56 644 1174 Электронная почта: davis.macs@moodys.com Веб-сайт: moodys.com
d)	Reyting to'g'risida emitentning o'z ixtiyoriga ko'ra ko'rsatiladigan boshqa ma'lumotlari.	Иные сведения о рейтинге, раскрываемые эмитентом по собственному усмотрению.
	Bank, uning fikricha, oshkor etilishi muhim bo'lgan va Bankning qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa reyting ma'lumotlariga ega emas.	Банк не располагает иными сведениями о рейтинге, раскрытие которых, по его мнению, является существенным и может повлиять на принятие решений, связанных с ценными бумагами Банка.
12.	Emitentning filiallari hamda vakolatxonalarining to'liq nomi, joylashgan manzili va bog'lanish uchun ma'lumotlar.	Полное наименование, место нахождения и контактные данные филиалов и представительств эмитента.
	1. "Asia Alliance Bank" ATB Amaliyot boshqarmasi Telefon: (+998 71) 231-60-00 Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 2a-uy. 2. "Shayxontohur" mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefon: (+998 71) 231-60-00 Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 31-uy. 3. "Mirobod" mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefonlar: (+998 71) 299-51-82, (+998 71) 299-51-83 Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29a-uy. 4. "Olmazor" mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefonlar: (+998 71) 230-42-01, (+998 71) 230-42-02 Manzil: 100069, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shimoliy Olmazor ko'chasi, 13B uy. 5. "Mirzo Ulug'bek" mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefon: +998 71 231 60 00 Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 20-uy. 6. "Qarshi" mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefonlar: (+998 75) 225-19-91, (+998 75) 225-04-14 Manzil: 180001, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Islom Karimov va H. Jo'rayev ko'chalari kesishmasi. 7. "Buxoro" mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefon: (+998 65) 223-04-08 Manzil: 200107, Buxoro shahri, B.Naqshbandiy ko'chasi, 195-A uy. 8. "Samarqand" mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefonlar: (+998 66) 231-00-33, (+998 66) 231-18-30 Manzil: 140100, Samarqand shahri, Kamol Otaturk ko'chasi.	1. Операционное управление АКБ «Asia Alliance Bank» Телефон: (+998 71) 231-60-00 Адрес: 100047, г. Ташкент, Яшнабадский р-н, ул.Махтумкули, 2а. 2. Региональный офис банковских услуг «Шайхонтохур» Телефон: (+998 71) 231-60-00 Адрес: 100011, г. Ташкент, Шайхонтохурский р-н, проспект Навои, дом 31. 3. Региональный офис банковских услуг «Мирабад» Телефон: (+998 71) 299-51-82, (+998 71) 299-51-83 Адрес: 100015, г. Ташкент, Мирабадский р-н, ул. Нукуская д. 29, а 4. Региональный офис банковских услуг «Алмазар» Телефон: (+998 71) 230-42-01, (+998 71) 230-42-02 Адрес: 100069, г.Ташкент, Алмазарский р-н, ул.Шимолий Олмазор, 13 Б 5. Региональный офис банковских услуг «Мирзо Улугбек» Телефон: +998 71 231 60 00 Адрес: 100170, г.Ташкент, Мирзо Улугбекский р-н, ул. Сайрам, д.20 6. Региональный офис банковских услуг «Карши» Телефон: (+998 75) 225-19-91, (+998 75) 225-04-14 Адрес: 180001, Кашкадарьинская область, г. Карши, пересечение улицы Ислам Каримова и улицы Х. Жураева. 7. Региональный офис банковских услуг «Бухара» Телефон: (+998 65) 223-04-08 Адрес: 200107, г. Бухара, ул. Б.Накшбандий, 195-А. 8. Региональный офис банковских услуг «Самарканд» Телефон: (+998 66) 231-00-33, (+998 66) 231-18-30 Адрес: 140100, г. Самарканд, ул. Камол Отатурк.

	9. “Farg‘ona” mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefon: (+998 73) 244-37-37 Manzil: 150117, Farg‘ona shahri, O‘zbekiston ovozi ko‘chasi, 4-uy. 10. “Chilonzor” mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Telefon: (+998 71) 277-34-00 Manzil: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko‘chasi, 53A-uy.	9. Региональный офис банковских услуг «Фергана» Телефон: (+998 73) 244-37-37 Адрес: 150117, г.Фергана, ул. Узбекистон овози д. 4. 10. Региональный офис банковских услуг «Чиланзар» Телефон: (+998 71) 277-34-00 Адрес: 100115, г.Ташкент, Чиланзарский район, ул. Чиланзарская д. 53А
13.	Emitentning shu‘ba va (yoki) tobe yuridik shaxslari to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar (mavjud bo‘lgan taqdirda): <i>to‘liq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR), joylashgan yeri va aloqa ma’lumotlari;</i> <i>yuridik shaxsni emitentga nisbatan shu‘ba va (yoki) tobe deb e’tirof etish asoslari;</i> <i>emitentning shu‘ba va (yoki) tobe yuridik shaxs ustav kapitalidagi ishtiroki ulushi, shu‘ba va (yoki) tobe yuridik shaxs aksiyadorlik jamiyati bo‘lgan taqdirda esa bunday aksiyadorlik jamiyatining emitentga tegishli ovoz beruvchi aksiyalari ulushi.</i>	Следующие сведения о дочерних и (или) зависимых юридических лицах эмитента (при их наличии): <i>полное наименование, организационно-правовая форма, идентификационный номер налогоплательщика (ИНН), место нахождения и контактные данные;</i> <i>основания признания юридического лица дочерним и (или) зависимым по отношению к эмитенту;</i> <i>доля участия эмитента в уставном капитале дочернего и (или) зависимого юридического лица, а если такое юридическое лицо является акционерным обществом — доля принадлежащих эмитенту голосующих акций данного акционерного общества.</i>
	Mazkur emissiya risolasi tasdiqlangan sanada “Asia Alliance Bank” ATB bitta sho‘ba yuridik shaxsga ega. To‘liq nomi: “Alliance Lizing” mas’uliyati cheklangan jamiyati. Tashkiliy-huquqiy shakli: mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ). Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR): 300658446. Manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy shoh ko‘chasi, 31-uy. Bog‘lanish uchun ma’lumotlar: telefon: (+998 71) 231-60-00, e lektron pochta manzili: leasing@aab.uz. “Alliance Lizing” MChJni sho‘ba jamiyat deb e’tirof etish uchun “Asia Alliance Bank” ATBning uning ustav kapitalida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etishi asos bo‘lib, bu Bankga jamiyat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilash va uning faoliyati ustidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq nazoratni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydi. “Asia Alliance Bank” ATBning “Alliance Lizing” MChJ ustav kapitalidagi ulushi 100 foizni tashkil etadi. Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanada emitent boshqa sho‘ba va (yoki) qaram yuridik shaxslarga ega emas.	По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии АКБ «Asia Alliance Bank» имеет одно дочернее юридическое лицо. Полное наименование: Общество с ограниченной ответственностью «Alliance Lizing». Организационно-правовая форма: общество с ограниченной ответственностью (ООО). Идентификационный номер налогоплательщика (ИНН): 300658446. Место нахождения: Республика Узбекистан, 100011, г. Ташкент, Шайхантахурский район, проспект Навои, дом 31. Контактные данные: телефон (+998 71) 231-60-00; адрес электронной почты leasing@aab.uz. Основанием признания ООО «Alliance Lizing» дочерним обществом является прямое участие АКБ «Asia Alliance Bank» в его уставном капитале, обеспечивающее Банку возможность определять решения, принимаемые обществом, и осуществлять контроль над его деятельностью в соответствии с законодательством Республики Узбекистан. Доля участия АКБ «Asia Alliance Bank» в уставном капитале ООО «Alliance Lizing» составляет 100 процентов. По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии эмитент не имеет иных дочерних и (или) зависимых юридических лиц.
14.	Emitentning O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida joylashgan sanoat, bank, moliyaviy guruhlariga, xoldinglar, konsernlar, uyushmalarga, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilariga mansubligi, tovar, valyuta, fond va boshqa birjalardagi a’zoliqi, ularning to‘liq nomi va joylashgan yeri ko‘rsatilgan holda. Agar emitentning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari ushbu tashkilotlarga	Сведения о принадлежности эмитента к промышленным, банковским, финансовым группам, холдингам, концернам, ассоциациям, профессиональным участникам рынка ценных бумаг, расположенным на территории Республики Узбекистан и за её пределами, членстве на товарных, валютных, фондовых и иных биржах с указанием их полного наименования и места нахождения. Если

	sezilarli darajada bog'liq bo'lsa, bunday tobelikning xususiyati batafsil bayon qilinadi.	результаты финансово-хозяйственной деятельности эмитента в значительной мере зависят от таких организаций, характер подобной зависимости описывается подробно.
	“Asia Alliance Bank” ATB O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyasi asosida faoliyat yurituvchi tijorat banki hisoblanadi. Bank O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida sanoat guruhlar, moliya-sanoat guruhlar, xoldinglar yoki konsernlar tarkibiga kirmaydi. Emitent O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarini birlashtiruvchi va bank tizimini rivojlantirish sohasida ularning manfaatlarini ifodalovchi O‘zbekiston banklari uyushmasining (O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri) a‘zosi hisoblanadi. Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanadagi holatga ko‘ra, Bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari biron-bir sanoat, moliyaviy guruhlar, xoldinglar, konsernlar, uyushmalar yoki boshqa birlashmalar faoliyatiga sezilarli darajada bog‘liq emas. Bankning ko‘rsatib o‘tilgan tashkilotlarga a‘zoli va birjalar faoliyatidagi ishtiroki bank faoliyatini amalga oshirishni, moliyaviy infratuzilma va kapital bozoriga kirishni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, Bankning moliyaviy holatiga yoki obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bog‘liqlikni keltirib chiqarmaydi.	АКБ «Asia Alliance Bank» является коммерческим банком, осуществляющим деятельность на основании лицензии Центрального банка Республики Узбекистан. Банк не входит в состав промышленных групп, финансово-промышленных групп, холдингов или концернов на территории Республики Узбекистан либо за её пределами. Эмитент является членом Ассоциации банков Узбекистана (Республика Узбекистан, г. Ташкент), объединяющей коммерческие банки Республики Узбекистан и представляющей их интересы в сфере развития банковской системы. По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии результаты финансово-хозяйственной деятельности Банка не находятся в существенной зависимости от деятельности каких-либо промышленных, финансовых групп, холдингов, концернов, ассоциаций или иных объединений. Членство Банка в указанных организациях и участие в деятельности бирж направлено на обеспечение осуществления банковской деятельности, доступа к финансовой инфраструктуре и рынку капитала и не создает зависимости, способной оказать существенное влияние на финансовое положение или исполнение обязательств Банка перед владельцами облигаций.
15.	Emitentning tashkiliy tuzilmasi. Ma'lumotlar mazkur risolaga ilovada oshkor qilinishi mumkin.	Организационная структура эмитента. Сведения могут быть раскрыты в приложении к настоящему проспекту.
	Emitentning tashkiliy tuzilmasi mazkur chet el valyutasida ifodalangan obligatsiyalarning emissiyasi risolasi 1-ilovada ilova qilinadi.	Организационная структура эмитента прилагается к данному проспекту эмиссии облигаций, номинированных в иностранной валюте, в Приложении №1.
16.	Emitent xodimlarining oxirgi 1 (bir) yil uchun o‘rtacha yillik soni. Ma'lumotlar quyidagilar soni kesimida oshkor qilinadi: <i>emitentning asosiy faoliyati bo'yicha band bo'lgan xodimlar; ma'muriy-boshqaruv xodimlari.</i> <i>Bo'sh katakda emitent ma'lumotlarni oshkor qilayotgan yillar ko'rsatiladi.</i>	Среднегодовая численность работников эмитента за последний 1 (один) год. Сведения раскрываются в разрезе следующих категорий: <i>работники, занятые в основной деятельности эмитента; административно-управленческий персонал.</i> <i>В пустой ячейке указываются годы, за которые раскрываются сведения.</i>
	umumiy soni – 895 nafar; Bankning asosiy faoliyatida band bo‘lgan xodimlar – 438 nafar; ma'muriy-boshqaruv xodimlari – 457 nafar.	общее количество – 895 человек; работники, занятые в основной деятельности Банка – 438 человек; административно-управленческий персонал – 457 человек.
17.	Ustav kapitalidagi 5 va undan ortiq foiz ulushga emitent egalik qiladigan tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar (ushbu ilovaning 9-bandida ko'rsatilgan yuridik shaxslar bundan mustasno). Har bir shunday yuridik shaxs bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi: <i>to'liq nomi, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shakli, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR), joylashgan yeri va aloqa ma'lumotlari;</i>	Сведения об организациях, в уставном капитале которых эмитенту принадлежит доля в размере 5 и более процентов (за исключением юридических лиц, указанных в пункте 9 настоящего приложения). По каждому такому юридическому лицу указываются: <i>полное наименование, включая организационно-правовую форму, ИНН, место нахождения и контактные данные;</i>

	<i>emitentning ustav kapitaldagi ulushi, bunday tashkilot aksiyadorlik jamiyati bo'lgan taqdirda esa bunday aksiyadorlik jamiyatining emitentga tegishli ovoz beruvchi aksiyalari ulushi.</i>	<i>доля эмитента в уставном капитале, а если такая организация является акционерным обществом — доля принадлежащих эмитенту голосующих акций данного акционерного общества.</i>
	Mazkur emissiya risolasi tasdiqlangan sanada “Asia Alliance Bank” ATB boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalida 5 va undan ortiq foiz miqdorida ishtirok etmaydi, “Emitentning sho'ba va (yoki) qaram yuridik shaxslari to'g'risida ma'lumotlar” bo'limida ma'lumotlari ochib berilgan sho'ba jamiyat bundan mustasno. Emitent ushbu bo'limga muvofiq ma'lumotlar oshkor etilishi lozim bo'lgan boshqa tashkilotlarga ega emas.	По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии АКБ «Asia Alliance Bank» не имеет участия в уставном капитале иных юридических лиц в размере 5 и более процентов, за исключением дочернего общества, сведения о котором раскрыты в разделе «Сведения о дочерних и (или) зависимых юридических лицах эмитента». Иных организаций, в отношении которых подлежат раскрытию сведения в соответствии с настоящим разделом, эмитент не имеет.
18.	Korporativ boshqaruv kodeksining emitent tomonidan qabul qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (agar uni qabul qilish emitent ustavida nazarda tutilgan bo'lsa).	Сведения о принятии эмитентом кодекса корпоративного управления (если его принятие предусмотрено уставом эмитента).
	“Asia Alliance Bank” ATB avval Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga amal qilgan. Bank aksiyadorlarining 2022-yil 11-iyuldagi yillik umumiy yig'ilishi qarori bilan (2022-yil 11-iyuldagi AC-1/2022-sonli bayonnoma) Bankning Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya qilish bo'yicha majburiyatlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanadagi holatga ko'ra, Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Bank Ustavi va ichki korporativ hujjatlar talablariga muvofiq korporativ boshqaruvni amalga oshiradi.	АКБ «Asia Alliance Bank» ранее руководствовался рекомендациями Кодекса корпоративного управления и Правил корпоративного управления для предприятий с государственным участием. Решением Годового общего собрания акционеров Банка от 11 июля 2022 года (Протокол № АС-1/2022 от 11 июля 2022 года) принято решение прекратить обязательства Банка по следованию рекомендациям Кодекса корпоративного управления и Правил корпоративного управления для предприятий с государственным участием. По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии Банк осуществляет корпоративное управление в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан, нормативными актами Центрального банка Республики Узбекистан, Уставом Банка и внутренними корпоративными документами.
19.	Emitent to'g'risidagi, emitentning fikriga ko'ra, oshkor etilishi emitentning qimmatli qog'ozlarini olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlar.	Иные сведения об эмитенте, которые, по мнению эмитента, существенны для принятия решения о приобретении его ценных бумаг.
	Emitent o'zining kreditga layoqatliligi va moliyaviy barqarorligini tasdiqlovchi amaldagi xalqaro va milliy kredit reytinglariga ega. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq rivojlangan korporativ boshqaruv, ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish va komplayens-nazorat tizimiga ega.	Эмитент обладает действующими международным кредитным рейтингом, подтверждающим его кредитоспособность и финансовую устойчивость. Банк располагает развитой системой корпоративного управления, внутреннего контроля, управления рисками и комплаенс-контроля, соответствующей требованиям законодательства Республики Узбекистан и нормативных актов Центрального банка Республики Узбекистан.
II.	KELGUSI QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARILISHINI MUOMALAGA KIRITISH SHARTLARI	УСЛОВИЯ ВВЕДЕНИЯ В ОБРАЩЕНИЕ ПРЕДСТОЯЩЕГО ВЫПУСКА ЦЕННЫХ БУМАГ
20.	Valyuta obligatsiyalarining chiqarilishi shartlari.	Условия выпуска валютных облигаций.
a)	Valyuta obligatsiyalarining chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar:	Сведения о выпуске валютных облигаций:
	bitta obligatsiyaning nominal qiymati:	номинальная стоимость одной облигации:
	100 (yuz) AQSH dollari	100 (сто) долларов США
	chiqarilish valyutasi:	валюта выпуска:
	AQSH dollari	Доллар США

	obligatsiyalar soni: (raqamlar va so'z bilan ko'rsatiladi)	количество облигаций: (цифрами и прописью)
	200 000 (ikki yuz ming) dona	200 000 (двести тысяч) штук
	obligatsiyalar chiqarilishining umumiy hajmi: (raqamlar va so'z bilan ko'rsatiladi)	общий объём выпуска облигаций: (цифрами и прописью)
	20 000 000 (yigirma million) AQSH dollari	20 000 000 (двадцать миллионов) долларов США
	joylashtirilayotgan obligatsiyalar uchun to'lov usuli va ularning narxi (narxlari):	способ оплаты и цена (цены) размещаемых облигаций:
	Ushbu chiqarilishdagi joylashtiriladigan obligatsiyalar uchun to'lov investorlar tomonidan xorijiy valyutada (AQSH dollarida) agent bankda ochilgan investitsiya vositachisining hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshiriladi, keyinchalik investitsiya vositachisi tomonidan Emitentning agent bankda ochilgan hisobvarag'iga pul mablag'lari "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida xorijiy valyutada ifodalangan obligatsiyalarni chiqarish, joylashtirish, muomalaga kiritish va so'ndirish tartibi to'g'risidagi nizomda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda PQ-254-son qarorida belgilangan tartibda o'tkaziladi. Obligatsiyalarni joylashtirish narxi har bir oraliq foiz davrining birinchi kunida ularning nominal qiymatiga, ya'ni 100,00 (yuz) AQSH dollariga teng bo'ladi. Ko'rsatilgan har bir davrning ikkinchi kundan boshlab, Obligatsiyalar jamg'arilgan foizli daromad (JFD) qo'shilgan holda nominal qiymati bo'yicha joylashtiriladi. JFD quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: $JFD = N * C\% * ((T^{+2} - T_i) / 365)$, bu yerda: <i>N</i> – bitta obligatsiyaning nominal qiymati: 100 (yuz) AQSH dollari; <i>C%</i> – foiz stavkasi: yillik 7,0% (yetti foiz); <i>T⁺²</i> – obligatsiyalarni joylashtirish bitimi tuzilgan kundan boshlab ikkinchi ish kuni; <i>T_i</i> – bitim tuzilgan oraliq davrning boshlanish sanasi. <i>Izoh: Bitta obligatsiyani joylashtirish narxi matematik yaxlitlash orqali bir sentgacha aniqlikda aniqlanadi. Yaxlitlangandan keyingi birinchi raqam 0 dan 4 gacha bo'lsa, butun sentning qiymati o'zgarmaydi va yaxlitlangandan keyingi birinchi raqam 5 dan 9 gacha bo'lsa, 1 ga oshib o'zgaradi.</i>	Оплата размещаемых облигаций данного выпуска осуществляется инвесторами в иностранной валюте (долларах США) путём перевода денежных средств на счёт инвестиционного посредника, открытый в Банке-агенте, с последующим переводом инвестиционным посредником денежных средств на счёт Эмитента, открытый в Банке-агенте, в порядке, установленном Положением о порядке выпуска, размещения, обращения и погашения облигаций, номинированных в иностранной валюте, в рамках специального правового режима «Регуляторная песочница» и Указом Президента Республики Узбекистан от 18 декабря 2025 года №УП-254. Цена размещения облигаций в первый день каждого промежуточного процентного периода будет равна их номинальной стоимости, то есть 100,00 (сто) долларов США. Начиная со второго дня каждого из указанных периодов, Облигации будут размещаться по номинальной стоимости с добавлением накопленного процентного дохода (НПД). НПД определяется по следующей формуле: $НПД = N * C\% * ((T^{+2} - T_i) / 365)$, где: <i>N</i> – номинальная стоимость одной облигации: 100 (сто) долларов США; <i>C%</i> – процентная ставка: 7,0% (семь процентов) годовых; <i>T⁺²</i> - второй рабочий день с даты сделки размещения облигаций; <i>T_i</i> – дата начала промежуточного периода, в котором была совершена сделка. <i>Примечание: Цена размещения одной облигации определяется с точностью до одного цента посредством математического округления. Значение целого цента не изменяется, если первая цифра, следующая за округляемой, равна от 0 до 4, и изменяется, увеличиваясь на 1, если первая цифра, следующая за округляемой, равна от 5 до 9.</i>
b)	Obligatsiyalar bo'yicha daromad olish:	Получение дохода по облигациям:
	foiz stavkasi:	процентная ставка:
	Obligatsiyalar bo'yicha mukofot stavkasi obligatsiyalarning butun muomala muddatiga qat'iy belgilangan bo'lib, obligatsiyalarning nominal qiymatidan yillik 7,0% (yetti foiz) ni tashkil etadi. Obligatsiya egasi o'tgan oraliq davr uchun obligatsiyaning nominal qiymatidan (amaldagi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda foizlarni to'lash manbaida soliqni ushlab qolishni ayirib tashlagan holda) obligatsiyalarni chiqarish shartlarida belgilangan tartibda foizli daromad olish huquqiga ega.	Ставка вознаграждения по облигациям является фиксированной на весь срок обращения облигаций и составляет 7,0% (семь процентов) годовых от номинальной стоимости облигаций. Владелец облигации имеет право на получение процентного дохода от номинальной стоимости облигации (за минусом удержания налога у источника выплаты процентов в случаях, предусмотренных действующим налоговым законодательством) за истекший промежуточный период в порядке, установленным условиями

	Bitta obligatsiyaga har bir oraliq davr uchun foizli daromad miqdori quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi: $D_n = N * C\% * d_n / 365, \text{ bunda:}$ D_n - bitta obligatsiyaga hisoblangan foizli daromad; N - bitta obligatsiyaning nominal qiymati: 100 (yuz) AQSH dollari; $C\%$ - foiz stavkasi: yillik 7,0% (yetti foiz); d_n - joriy oraliq davrdagi kunlar soni; n - oraliq davrning tartib raqami. $(n = 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12).$	выпуска облигаций. Размер процентного дохода по каждому промежуточному периоду на одну облигацию определяется в соответствии с нижеследующей формулой: $D_n = N * C\% * d_n / 365, \text{ где:}$ D_n – процентный доход, начисленный на одну облигацию; N – номинальная стоимость одной облигации: 100 (сто) долларов США; $C\%$ – процентная ставка: 7,0% (семь процентов) годовых; d_n – количество дней в текущем промежуточном периоде; n – порядковый номер промежуточного периода. $(n = 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12).$
	obligatsiyalar bo'yicha daromad hisoblanishi boshlanadigan sana	дата начисления дохода по облигациям:
	Obligatsiyalar bo'yicha foizli daromad hisoblanishi boshlanadigan sana obligatsiyalar muomalasi boshlangan sana hisoblanadi.	Датой, с которой начинается начисление процентного дохода по облигациям, является дата начала обращения облигаций.
	obligatsiyalar bo'yicha daromadni to'lash davriyligi va (yoki) to'lash sanalari	периодичность и (или) даты выплаты дохода по облигациям:
	Har bir obligatsiya bo'yicha foiz daromadi har bir oraliq foiz davri uchun hisoblanadi va to'lanadi. Obligatsiyalarning muomala davri 12 ta oraliq davrga bo'lingan: ulardan 9 tasi 91 (to'qson bir) kalendar kunni, 3 tasi esa 92 (to'qson ikki) kalendar kunni tashkil etadi. Birinchi oraliq davrning boshlanish sanasi obligatsiyalar muomalasi boshlangan sanaga, keyingi oraliq davrlarning boshlanish sanalari esa obligatsiyalar muomalasi boshlangan sanadan boshlab mos ravishda 92, 183, 274, 366, 457, 548, 639, 731, 822, 913 va 1004-kunlarga to'g'ri keladi. Obligatsiya egalari foizli daromadi O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi tomonidan har bir oraliq davrning oxirgi kunida, ya'ni obligatsiyalar muomala muddatining 91, 182, 273, 365, 456, 547, 638, 730, 821, 912, 1003 va 1095-kunlarida shakllantirilgan reyestr asosida to'lanadi.	Процентный доход по каждой облигации рассчитывается и выплачивается за каждый промежуточный процентный период. Период обращения Облигаций разделён на 12 промежуточных периодов: 9 из них составляют 91 (девяносто один) календарный день, 3 — 92 (девяносто два) календарных дня. Дата начала первого промежуточного периода соответствует дате начала обращения облигаций, а даты начала последующих промежуточных периодов – 92-й, 183-й, 274-й, 366-й, 457-й, 548-й, 639-й, 731-й, 822-й, 913-й и 1004-й день соответственно с даты начала обращения облигаций. Процентный доход держателей облигаций выплачивается на основании реестра, сформированного Центральным Депозитарием Республики Узбекистан на последний день каждого промежуточного периода, то есть на 91-й, 182-й, 273-й, 365-й, 456-й, 547-й, 638-й, 730-й, 821-й, 912-й, 1003-й и 1095-й день срока обращения облигаций.
	obligatsiyalar bo'yicha daromadni to'lash tartibi va shartlari, daromadni olish usuli	порядок и условия выплаты дохода по облигациям, способ получения дохода:
	Har bir oraliq davr uchun foizli daromadlarni to'lash tegishli oraliq davr tugagan sanadan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay xorijiy valyutada (AQSH dollarida) amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan muddatda Emitent tegishli oraliq davr tugaganidan keyin 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay Markaziy depozitariyga oraliq davrning oxirgi kunidagi holatga ko'ra valyuta obligatsiyalari	Выплата процентных доходов за каждый промежуточный период осуществляется в иностранной валюте (долларах США) не позднее 10 (десяти) рабочих дней с даты окончания соответствующего промежуточного периода. В указанный срок Эмитент не позднее 1 (одного) рабочего дня после окончания соответствующего промежуточного периода представляет в Центральный депозитарий поручение о формировании реестра держателей валютных

	egalarining reyestrini shakllantirish to'g'risida topshiriqnoma taqdim etadi. Ushbu topshiriqnoma asosida Markaziy depozitariy valyuta obligatsiyalari egalarining reyestrini elektron hujjat shaklida shakllantiradi va uni topshiriqnoma olingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay Emitentga taqdim etadi. Emitent reyestrni olgandan so'ng, tegishli soliqlarni hisoblab chiqadi va to'laydi, shundan so'ng 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay chet el valyutasidagi pul mablag'larini Markaziy depozitariyning Agent bankda ochilgan tegishli valyuta hisobvarag'iga o'tkazadi. Markaziy depozitariy to'lov topshiriqnomasi olingan va pul mablag'lari kelib tushgan sanadan e'tiboran 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay jismoniy shaxslarga ularning Agent bankdagi shaxsiy valyuta hisobvaraqlariga, yuridik shaxslarga esa ularning xorijiy valyutadagi bank hisobvaraqlariga mablag'larni o'tkazish orqali foiz daromadini to'lashni amalga oshiradi. Jismoniy shaxslar uchun ochilgan shaxsiy valyuta hisobvaraqlari ularning egalari tomonidan Markaziy depozitariyning mobil ilovasi yordamida masofadan turib boshqarilishi mumkin. Bank rekvizitlari noto'g'ri ko'rsatilganligi yoki shaxsiy valyuta hisobvarag'ini ochish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavjud emasligi sababli daromadlarni o'tkazish imkoni bo'lmagan taqdirda, pul mablag'lari tegishli holatlar aniqlangunga qadar egasining shaxsiy valyuta hisobvarag'iga o'tkaziladi va egasi murojaat qilgunga qadar unda saqlanadi. To'lanishi lozim bo'lgan obligatsiyalar bo'yicha foizli daromadlar to'g'risidagi axborot qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz), "Toshkent" RFBning rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz), shuningdek Emitentning rasmiy veb-saytida (www.aab.uz) oshkor etiladi.	облигаций по состоянию на последний день промежуточного периода. На основании данного поручения Центральный депозитарий формирует реестр владельцев валютных облигаций в форме электронного документа и представляет его Эмитенту не позднее 5 (пяти) рабочих дней с даты получения поручения. После получения реестра Эмитент производит расчёт и уплату соответствующих налогов, после чего не позднее 2 (двух) рабочих дней перечисляет денежные средства в иностранной валюте на соответствующий валютный счёт Центрального депозитария, открытый в Банке-агенте. Центральный депозитарий не позднее 2 (двух) рабочих дней с даты получения платёжного поручения и поступления денежных средств осуществляет выплату процентного дохода путём перевода средств физическим лицам — на их персональные валютные счета в Банке-агенте, юридическим лицам — на их банковские счета в иностранной валюте. Персональные валютные счета, открытые для физических лиц, могут управляться их владельцами дистанционно с помощью мобильного приложения Центрального депозитария. В случае невозможности перевода доходов вследствие некорректных банковских реквизитов или отсутствия данных, необходимых для открытия персонального валютного счёта, денежные средства зачисляются на персональный валютный счёт владельца до выяснения соответствующих обстоятельств и хранятся на нём до момента обращения владельца. Информация о процентных доходах по облигациям, подлежащих выплате, раскрывается в порядке и сроки, установленные законодательными актами, на Едином портале корпоративной информации (www.openinfo.uz), на официальном веб-сайте РФБ «Ташкент» (www.uzse.uz), а также на официальном веб-сайте Эмитента (www.aab.uz).
c)	Obligatsiyalarni joylashtirish shartlari va tartibi:	Условия и порядок размещения облигаций:
	Joylashtirish usuli.	Способ размещения.
	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar cheklanmagan doiradagi investorlar orasida ochiq obuna orqali joylashtiriladi.	Облигации настоящего выпуска размещаются путем открытой подписки среди неограниченного числа инвесторов.
	Mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalarni sotib olishga doir cheklovlar. <i>Cheklovlarni tavsiflashda ushbu cheklovlar qaysi hujjat (hujjatlar) va (yoki) qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanganligi ko'rsatilishi lozim.</i>	Ограничения на приобретение облигаций данного выпуска. <i>При описании ограничений должно быть указано, в соответствии с каким документом (документами) и (или) законодательными актами установлены данные ограничения.</i>
	Ushbu chiqarilish uchun obligatsiyalarni sotib olish bo'yicha cheklovlar mavjud emas.	Для данного выпуска не предусмотрены ограничения на приобретение облигаций. При этом приобретение облигаций осуществляется с соблюдением следующих требований,

	Bunda obligatsiyalarni sotib olish 3826-son Nizomning 26–28-bandlarida belgilangan quyidagi talablarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi: – jismoniy shaxslar obligatsiyalarni sotib olish uchun xorijiy valyutadagi pul mablag‘larini investitsiya vositachisining Agent bankda ochilgan valyuta hisobvarag‘iga naqd shaklda yoki o‘z bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan kiritadilar. Investitsiya vositachisi tomonidan jismoniy shaxslarning naqd pul mablag‘larini o‘z kassalari yoki notariuslar orqali qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi; – yuridik shaxslar obligatsiyalarni tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport qilishdan yoxud qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan chet el valyutasidagi o‘z pul mablag‘lari hisobiga sotib olishga haqli, konvertatsiya yo‘li bilan sotib olingan chet el valyutasi bundan mustasno; – sotib olinadigan obligatsiyalar uchun hisob-kitoblar va to‘lovlar “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi banklar orqali xorijiy valyutada amalga oshiriladi.	установленных пунктами 26–28 Положения №3826: – физические лица вносят денежные средства в иностранной валюте для приобретения облигаций на валютный счёт инвестиционного посредника, открытый в Банке-агенте, в наличной форме либо путём перевода денежных средств со своих банковских счетов. Приём инвестиционным посредником наличных денежных средств физических лиц через собственные кассы или нотариусов не допускается; – юридические лица вправе приобретать облигации за счёт собственных денежных средств в иностранной валюте, полученных от экспорта товаров (работ, услуг) либо из иных источников, не запрещённых законодательством, за исключением иностранной валюты, приобретённой посредством конвертации; – расчёты и платежи за приобретаемые облигации осуществляются в иностранной валюте через банки на территории Республики Узбекистан в порядке, установленном специальным правовым режимом «Регуляторная песочница».
	Obligatsiyalarni joylashtirish muddati va tartibi. <i>Obligatsiyalarni joylashtirish boshlanadigan va tugaydigan sanalar yoki obligatsiyalarni joylashtirish muddatini belgilash tartibi ko‘rsatiladi. Agar obligatsiyalarni joylashtirish muddati obligatsiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi biron-bir axborotni oshkor qilish sanasiga havola qilish orqali belgilansa, bunday axborotni oshkor qilish tartibi ham ko‘rsatiladi;</i>	Срок и порядок размещения облигаций. <i>Указываются даты начала и окончания размещения облигаций или порядок определения срока их размещения. Если срок размещения облигаций определяется путём ссылки на дату раскрытия какой-либо информации о выпуске облигаций, также указывается порядок раскрытия такой информации;</i>
	Joylashtirish muddatlari: Obligatsiyalarni joylashtirish muddati joylashtirish boshlangan sanadan boshlab 120 (bir yuz yigirma) ish kunini tashkil etadi. Joylashtirishning boshlanish sanasi - ushbu obligatsiyalar chiqarilishining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xabarnoma Yagona korporativ axborot portalida (www.new.openinfo.uz), shuningdek Emitentning rasmiy veb-saytida (www.aab.uz) e‘lon qilingan sanadan boshlab 15 (o‘n beshinchi) kalendar kuni. Agar obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, bunday holda joylashtirishning boshlanish sanasi keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi. Joylashtirishning tugash sanasi - ushbu chiqarilishning oxirgi obligatsiyasini joylashtirish sanasi, ammo har qanday holatda joylashtirish boshlangan sanadan boshlab 120 (bir yuz yigirma) ish kunidan oshmasligi kerak.	Сроки размещения: Срок размещения облигаций составит 120 (сто двадцать) рабочих дней с даты начала размещения. Дата начала размещения — 15-й (пятнадцатый) календарный день, начиная с даты опубликования уведомления о государственной регистрации данного выпуска облигаций на Едином портале корпоративной информации (www.new.openinfo.uz), а также на официальном веб-сайте Эмитента (www.aab.uz). Если дата начала размещения облигаций приходится на выходной или праздничный день, в таком случае дата начала размещения переносится на первый следующий рабочий день. Дата окончания размещения — дата размещения последней облигации настоящего выпуска, но в любом случае не более 120 (ста двадцати) рабочих дней с даты начала размещения.
	Obligatsiyalarni realizatsiya qilish joyi (qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchisining to‘liq nomi va uning aloqa ma‘lumotlari).	Место реализации облигаций (полное наименование организатора торговли ценными бумагами и его контактные данные).
	“Toshkent” Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyati; Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik xiyoboni, 107, info@uzse.uz, www.uzse.uz, +998 71 267-18-23.	Акционерное общество Респуббликанская фондовая биржа «Ташкент»; г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, проспект Мустакиллик, 107, info@uzse.uz, www.uzse.uz, +998 71 267-18-23.
d)	Obligatsiyalarning muomala muddati va tartibi. <i>Obligatsiyalar muomalasining boshlanish sanasi va tugash sanasi yoki muomala muddatini belgilash tartibi ko‘rsatiladi.</i>	Срок обращения и порядок обращения облигаций. <i>Указываются дата начала и дата окончания обращения облигаций или порядок определения срока обращения.</i>

	Obligatsiyalar muomalasining boshlanish sanasi ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni joylashtirish boshlangan sanadan e'tiboran ikkinchi ish kuni hisoblanadi. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar muomalaga chiqarilgan sanadan boshlab 1095 (bir ming to'qson besh) kun davomida muomalada bo'ladi. 1095 (bir ming to'qson beshinchi) kun murojaatning tugash sanasi bo'ladi. Obligatsiyalar muomalasi oldi-sotdi bitimlarini tuzish yo'li bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qimmatli qog'ozlar egasining o'zgarishiga olib keladigan boshqa harakatlar bilan amalga oshiriladi. Obligatsiyalarning muomalasi jarayonida ularning oldi-sotdi bitimlarini tuzish fond birjasining qoidalariga muvofiq fond birjasining savdo maydonchasida amalga oshiriladi. Obligatsiyalar bilan bog'liq boshqa bitimlar yozma shaklda tuziladi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Obligatsiyalarga bo'lgan huquqlar xaridorga uning depozitar hisobvarag'iga belgilangan tartibda yozuv kiritilgan paytdan boshlab o'tadi va xizmat ko'rsatuvchi investitsiya vositachisi tomonidan qonunchilik normalariga muvofiq berilgan depozitar hisobvaraقدan ko'chirma bilan tasdiqlanadi. Obligatsiyaga bo'lgan huquqlar boshqa shaxsga o'tganda xaridor obligatsiyalar egasi (saqllovchisi) maqomini oladi.	Датой начала обращения облигаций является второй рабочий день с даты начала размещения облигаций данного выпуска. Облигации данного выпуска будут находиться в обращении 1095 (одна тысяча девяносто пять) дней с даты начала их обращения. 1095-й (одна тысяча девяносто пятый) день будет являться датой окончания обращения. Обращение облигаций осуществляется путем заключения сделок купли-продажи, а также другими действиями, которые, согласно законодательству Республики Узбекистан, приводят к изменению владельца ценных бумаг. Совершение сделок купли-продажи облигаций в процессе их обращения осуществляются на торговой площадке фондовой биржи в соответствии с правилами фондовой биржи. Иные сделки с облигациями совершаются в письменной форме и подлежат регистрации в порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан. Права на облигации переходят к покупателю с момента внесения записи в его депозитарный счет в установленном порядке и подтверждаются выпиской из депозитарного счета, выданной обслуживающим инвестиционным посредником в соответствии с законодательными нормами. При переходе прав на облигацию покупатель приобретает статус владельца (держателя) облигаций.
e)	Obligatsiyalarni so'ndirish shartlari va tartibi:	Условия и порядок погашения облигаций:
	Obligatsiyalarni so'ndirish sanasi.	Дата погашения облигаций.
	Obligatsiyalar muomalasi boshlangan kundan boshlab 1096 (bir ming to'qson oltinchi) kun, ya'ni ularning muomalasi tugagan kundan keyingi kun obligatsiyalarni so'ndirishning boshlanish sanasi hisoblanadi. Agar ko'rsatilgan kun dam olish yoki ishlanmaydigan kunga to'g'ri kelsa, to'lovning boshlanish sanasi keyingi ish kuniga ko'chiriladi.	Датой начала погашения облигаций является 1096-й (одна тысяча девяносто шестой) день с даты начала их обращения, то есть день, следующий за днем окончания их обращения. Если указанный день приходится на выходной или нерабочий день, дата начала погашения переносится на следующий рабочий день.
	Obligatsiyalarni so'ndirish usuli.	Способ погашения облигаций.
	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar xorijiy valyutada (AQSH dollarida) naqd pulsiz shaklda so'ndiriladi. Obligatsiyalarni so'ndirish Emitent tomonidan Markaziy depozitariy orqali Agent-bank orqali, so'ndirish boshlangan sanadan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay, obligatsiya egalarining hisobvaraqlariga xorijiy valyutadagi pul mablag'larini (nominal qiymati va oxirgi oraliq davr uchun foiz daromadi) o'tkazish orqali amalga oshiriladi. So'ndirish Emitent va Markaziy depozitariy o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.	Облигации настоящего выпуска погашаются в иностранной валюте (долларах США) в безналичной форме. Погашение облигаций осуществляется Эмитентом через Центральный депозитарий посредством Банка-агента путём перевода денежных средств (номинальной стоимости и процентного дохода за последний промежуточный период) в иностранной валюте на счета владельцев облигаций не позднее 10 (десяти) рабочих дней с даты начала погашения. Погашение будет осуществляться на основании договора, заключаемого между Эмитентом и Центральным депозитарием. В указанный срок Эмитент не позднее 1 (одного) рабочего дня с даты начала погашения

Ko'rsatilgan muddatda Emitent so'ndirish boshlangan sanadan boshlab 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay Markaziy depozitariyga muomala tugash sanasidagi holatga ko'ra valyuta obligatsiyalarini egalari reyestrini shakllantirish to'g'risida topshiriqnoma taqdim etadi. Ushbu topshiriqnoma asosida Markaziy depozitariy valyuta obligatsiyalari egalarining reyestrini elektron hujjat shaklida shakllantiradi va uni topshiriqnoma olingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay Emitentga taqdim etadi. Emitent reyestrni olgandan so'ng, tegishli soliqlarni hisob-kitob qiladi va to'laydi, shundan so'ng 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay, oxirgi oraliq davr uchun nominal qiymat va foiz daromadini bir yo'la to'lash uchun yetarli bo'lgan hajmdagi xorijiy valyutadagi pul mablag'larini Markaziy depozitariyning Agent bankda ochilgan tegishli valyuta hisobvarag'iga o'tkazadi. Markaziy depozitariy to'lovni Emitentdan pul mablag'lari olingan sanadan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay, jismoniy shaxslarga - Markaziy depozitariy tomonidan Agent bankda ochiladigan shaxsiy valyuta hisobvaraqlariga, yuridik shaxslarga - obligatsiyalar egalari reyestrda ko'rsatilgan xorijiy valyutadagi bank hisobvaraqlariga o'tkazish orqali amalga oshiradi. Shaxsiy valyuta hisobvaraqlaridagi mablag'lar ularning egalari tomonidan Markaziy depozitariyning mobil ilovasi orqali bank hisobvaraqlariga yoki kartalariga o'tkazilishi mumkin. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha talab qilinmagan daromadlarni hisobga olish tartibi: – Bank rekvizitlari noto'g'riligi yoki shaxsiy valyuta hisobvarag'ini ochish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yo'qligi sababli pul mablag'larini o'tkazish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, tegishli holatlar aniqlangunga qadar pul mablag'lari egasining shaxsiy valyuta hisobvarag'iga o'tkaziladi va egasi murojaat qilgunga qadar unda saqlanadi; – Aniqlangunga qadar shaxsiy valyuta hisobvarag'idagi pul mablag'larini hisobga olish har bir obligatsiya egasi bo'yicha amalga oshiriladi va ulardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi; – Shaxsiy valyuta hisobvarag'idagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar aniqlangunga qadar obligatsiya egasi yoki ularning vorislari tomonidan talab qilib olingunga qadar saqlanadi; – Markaziy depozitariy 5 ish kuni mobaynida aniqlanishigacha shaxsiy valyuta hisobvarag'idan qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni olish uchun murojaat qilgan obligatsiya egalarini yoki ularning vorislarini identifikatsiya qiladi va obligatsiyalar bo'yicha daromadlarni ularning hisobvaraqlariga o'tkazadi;	представляет в Центральный депозитарий поручение о формировании реестра держателей валютных облигаций по состоянию на дату окончания обращения. На основании данного поручения Центральный депозитарий формирует реестр владельцев валютных облигаций в форме электронного документа и представляет его Эмитенту не позднее 5 (пяти) рабочих дней с даты получения поручения. После получения реестра Эмитент производит расчёт и уплату соответствующих налогов, после чего не позднее 2 (двух) рабочих дней перечисляет денежные средства в иностранной валюте в объеме, достаточном для единовременной выплаты номинальной стоимости и процентного дохода за последний промежуточный период, на соответствующий валютный счёт Центрального депозитария, открытый в Банке-агенте. Центральный депозитарий осуществляет выплату суммы погашения не позднее 2 (двух) рабочих дней с даты получения денежных средств от Эмитента, путём перевода средств физическим лицам — на их персональные валютные счета, открываемые Центральным депозитарием в Банке-агенте, юридическим лицам — на их банковские счета в иностранной валюте, указанные в реестре владельцев облигаций. Средства на персональных валютных счетах могут быть переведены их владельцами на банковские счета или карты через мобильное приложение Центрального депозитария. Порядок учета не востребовавшихся доходов по облигациям, настоящего выпуска: – В случае невозможности перевода денежных средств вследствие некорректных банковских реквизитов или отсутствия данных, необходимых для открытия персонального валютного счёта, денежные средства зачисляются на персональный валютный счёт владельца до выяснения соответствующих обстоятельств и хранятся на нём до момента обращения владельца; – Учет денежных средств, находящихся на персональном валютном счете до выяснения, осуществляется по каждому владельцу облигации и их использование на другие цели не допускается; – Доходы по ценным бумагам на персональном валютном счете до выяснения, сохраняются до момента их востребования владельцем облигации или их наследниками; – В течение 5 рабочих дней Центральный депозитарий идентифицирует владельцев облигации или их наследников, обратившихся за получением доходов по ценным бумагам с персонального валютного счета до выяснения, и перечисляет доходы по облигациям на их счета; – Не позднее 10-го числа месяца, следующего за отчетным, Центральный депозитарий
---	--

	– Hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay Markaziy depozitariy qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli organga shaxsiy valyuta hisobvarag‘ida aniqlangan pul mablag‘lari to‘g‘risida taqdim etadi. So‘ndirish tugallangandan so‘ng Markaziy depozitariy so‘ndirilgan obligatsiyalarni ularning egalarining depozitar hisobvaraqlaridan qonunchilikda belgilangan tartibda chiqarilishini keyinchalik bekor qilish uchun Emitentning emissiya hisobvarag‘iga o‘tkazadi.	предоставляет в уполномоченный орган по регулированию рынка ценных бумаг о денежных средствах, находящихся на персональном валютном счете до выяснения. После завершения погашения Центральный депозитарий переводит погашенные облигации с депозитарных счетов их владельцев на эмиссионный счёт Эмитента для последующего аннулирования выпуска в порядке, установленном законодательством.
f)	Obligatsiyalarni muddatidan oldin so‘ndirish imkoniyati va shartlari. <i>Muddatidan oldin so‘ndirish bahosi (qiymati) yoki uni belgilash tartibi, obligatsiyalar muddatidan oldin so‘ndirish uchun undan oldin taqdim etilishi mumkin bo‘lmagan muddat, shuningdek emitent tomonidan muddatidan oldin so‘ndirish to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilish tartibi ko‘rsatiladi;</i>	Возможность и условия досрочного погашения облигаций. <i>Указываются цена (стоимость) досрочного погашения или порядок её определения, срок, ранее которого облигации не могут быть предъявлены к досрочному погашению, а также порядок раскрытия эмитентом информации о досрочном погашении.</i>
	Ushbu chiqarilishdagi valyuta obligatsiyalarini muddatidan oldin so‘ndirish nazarda tutilmagan, quyidagi holatlar bundan mustasno. 1. Obligatsiyalar egalarining talabiga ko‘ra muddatidan oldin so‘ndirish Obligatsiyalar egasi o‘ziga tegishli obligatsiyalarni quyidagi hollarda muddatidan oldin so‘ndirish uchun taqdim etishga haqli: – Emitentning o‘z kapitali miqdorining Emitentning so‘ndirilmagan va uchinchi shaxs tomonidan ta‘minlanmagan obligatsiyalarining umumiy hajmidan kamayishi. Xususiy kapital miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Emitentning rasmiy veb-saytida (www.aab.uz) har hisobot choragi yakunida oshkor etiladi; bunday ma‘lumotlar belgilangan muddatda oshkor etilmagan taqdirda, obligatsiyalar egasi ularni taqdim etishni talab qilishga haqli; – Emitentning tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgarganda. Axborot Yagona korporativ axborot portalida (openinfo.uz) va Emitentning rasmiy veb-saytida (www.aab.uz) oshkor etiladi; – Emitentning tijorat faoliyatini yuritish uchun litsenziyasining amal qilishi to‘xtatib turilganda; – Emitent tomonidan ushbu emissiya risolasining 20-bandi “o” kichik bandida nazarda tutilgan moliyaviy kovenantlar buzilganda. Tartib va muddatlar: Emitent asos yuzaga kelgan sanadan boshlab 2 (ikki) ish kuni mobaynida ushbu fakt va muddatidan oldin so‘ndirishni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi rasmiy xabarnomani Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz), o‘zining rasmiy veb-saytida (www.aab.uz) va “Toshkent” RFBning rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) e‘lon qiladi. Xabarnoma e‘lon qilingan sanadan boshlab 10 (o‘n) kalendar kun ichida obligatsiyalar egasi Emitentga barcha zarur rekvizitlarni ko‘rsatgan holda o‘ziga tegishli obligatsiyalarni muddatidan oldin so‘ndirish talabi bilan yozma ariza yuborishga haqli.	Досрочное погашение валютных облигаций настоящего выпуска не предусмотрено, за исключением следующих случаев. 1. Досрочное погашение по требованию владельцев облигаций Владелец облигаций вправе предъявить принадлежащие ему облигации к досрочному погашению в следующих случаях: – уменьшение размера собственного капитала Эмитента ниже совокупного объема непогашенных и необеспеченных третьим лицом облигаций Эмитента. Информация о размере собственного капитала раскрывается на официальном веб-сайте Эмитента (www.aab.uz) по окончании каждого отчетного квартала; в случае нераскрытия такой информации в установленный срок владелец облигаций вправе потребовать её предоставления; – изменение организационно-правовой формы Эмитента. Информация раскрывается на Едином портале корпоративной информации (openinfo.uz) и на официальном веб-сайте Эмитента (www.aab.uz); – при приостановлении действия лицензии Эмитента на ведение коммерческой деятельности; – при нарушении Эмитентом финансовых ковенантов, предусмотренных подпунктом «о» пункта 20 настоящего Проспекта эмиссии. Порядок и сроки: Эмитент в течение 2 (двух) рабочих дней с даты возникновения основания публикует официальное уведомление о данном факте и порядке осуществления досрочного погашения на Едином портале корпоративной информации (www.openinfo.uz), на своём официальном веб-сайте (www.aab.uz) и на официальном веб-сайте РФБ «Ташкент» (www.uzse.uz). В течение 10 (десяти) календарных дней с даты публикации уведомления владелец облигаций вправе направить Эмитенту письменное заявление с требованием о досрочном погашении принадлежащих ему облигаций, указав все необходимые реквизиты.

Arizalarni qabul qilish tugagan sanadan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay, Emitent ariza bergan barcha obligatsiya egalari obligatsiyalarning nominal qiymatini va ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risidagi arizalarni qabul qilish tugagan sanada to'plangan foiz daromadini to'lashi shart. Arizalarni qabul qilish tugagan sanadan boshlab 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay, Emitent Markaziy depozitariyga ko'rsatilgan sana holatiga ko'ra obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirishga taqdim etgan obligatsiyalar egalari reyestrini shakllantirish to'g'risida topshiriqnomaga yuboradi. Markaziy depozitariy reyestrni shakllantiradi va uni topshiriqnomaga olingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay Emitentga taqdim etadi. Emitent reyestrni olgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay tegishli soliqlarni hisoblab chiqadi va to'laydi hamda chet el valyutasidagi pul mablag'larini Markaziy depozitariyning Agent bankda ochilgan tegishli valyuta hisobvarag'iga o'tkazadi. Markaziy depozitariy to'lov topshiriqnomasi olingan va pul mablag'lari kelib tushgan sanadan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay tegishli mablag'larni to'lovlarni amalga oshiradi. To'lovlar belgilangan muddatda muddatidan oldin so'ndirish uchun obligatsiyalarni taqdim etgan barcha egalari bir vaqtning o'zida va teng hajmda amalga oshiriladi. Qisman to'lovlarni yoxud ayrim egalari to'lovlarni boshqalarga qaraganda ertaroq yoki kechroq amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirishga taqdim etmagan obligatsiyalar egalari ushbu chiqarilishning muomala muddati tugagach, o'zlariga tegishli obligatsiyalarni so'ndirish huquqini saqlab qoladilar. 2. Umumiy chiqarilishni muddatidan oldin majburiy to'lash Obligatsiyalarning barcha chiqarilishini muddatidan oldin so'ndirish Emitent tomonidan barcha obligatsiya egalari nisbatan arizalar bermasdan quyidagi hollarda amalga oshiriladi: – Emitent tugatilganda; – texnik defolt yuzaga kelganda - vakolatli davlat organining 2026-yil 29-apreldagi 3826-son "Kapital bozori sohasida "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida chet el valyutasida ifodalangan obligatsiyalarni chiqarish, joylashtirish, ularning muomalada bo'lishi va so'ndirilishi tartibi to'g'risida"gi nizomning 41-bandiga muvofiq Emitentga yuboriladigan ko'rsatmasi asosida; – mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat keskin o'zgarganda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi	Не позднее чем за 10 (десять) рабочих дней с даты окончания приема заявлений Эмитент обязан выплатить всем владельцам облигаций, подавшим заявление, номинальную стоимость облигаций и процентный доход, накопленный на дату окончания приема заявлений о досрочном погашении облигаций настоящего выпуска. Не позднее 1 (одного) рабочего дня с даты окончания приема заявлений Эмитент направляет в Центральный депозитарий поручение о формировании реестра владельцев облигаций, предъявивших облигации к досрочному погашению, по состоянию на указанную дату. Центральный депозитарий формирует реестр и представляет его Эмитенту не позднее 5 (пяти) рабочих дней с даты получения поручения. Эмитент не позднее 2 (двух) рабочих дней с даты получения реестра производит расчёт и уплату соответствующих налогов и перечисляет денежные средства в иностранной валюте на соответствующий валютный счёт Центрального депозитария, открытый в Банке-агенте. Центральный депозитарий осуществляет выплату причитающихся сумм не позднее 2 (двух) рабочих дней с даты получения платёжного поручения и поступления денежных средств. Выплаты производятся одновременно и в равном объёме всем владельцам, предъявившим облигации к досрочному погашению в установленный срок. Осуществление частичных выплат либо выплат отдельным владельцам ранее или позднее, чем другим, не допускается. Владельцы облигаций, не предъявившие облигации к досрочному погашению, сохраняют право на погашение принадлежащих им облигаций по окончании срока обращения настоящего выпуска. 2. Обязательное досрочное погашение всего выпуска Досрочное погашение всего выпуска облигаций осуществляется Эмитентом в отношении всех владельцев облигаций, без подачи заявлений, в следующих случаях: – при ликвидации Эмитента; – при возникновении технического дефолта — на основании указания уполномоченного государственного органа, направляемого Эмитенту в соответствии с пунктом 41 Положения №3826 от «29» апреля 2026 г. «О порядке выпуска, размещения, обращения и погашения облигаций, номинированных в иностранной валюте, в рамках специального правового режима «Регуляторная песочница» в сфере рынка капитала»;
---	---

Markaziy bankining murojaati bo'yicha - 2026-yil 29-apreldagi 3826-son "Kapital bozori sohasida "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida chet el valyutasida ifodalangan obligatsiyalarni chiqarish, joylashtirish, ularning muomalada bo'lishi va so'ndirilishi tartibi to'g'risida"gi nizomning 43-bandiga muvofiq vakolatli davlat organining talabi asosida. Bu holda muddatidan oldin to'lash muddati talabnoma yuborilgan sanadan boshlab kamida 3 (uch) oyni tashkil etadi; – ushbu chiqarilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda. <i>Tartibi va muddatlari:</i> Emitent muddatidan oldin so'ndirish to'g'risidagi ko'rsatmani (talabnomani) olgan sanadan boshlab 2 (ikki) ish kuni mobaynida Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz), o'zining rasmiy veb-saytida (www.aab.uz) va "Toshkent" RFBning rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) muddatidan oldin so'ndirish sanasini ko'rsatgan holda rasmiy xabarnomani e'lon qiladi. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha foizli daromad yuqorida sanab o'tilgan hodisalardan biri yuz bergan sanagacha ularning haqiqiy muomala davri uchun hisoblanadi. Ko'rsatilgan hollarda, muddatidan oldin so'ndirish to'g'risidagi ma'lumot e'lon qilingan sanadan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay, Emitent ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning barcha egalari obligatsiyalarning nominal qiymatini va yuqorida sanab o'tilgan voqealardan biri sodir bo'lgan sanada jamg'arilgan foiz daromadini to'lashi shart. Ko'rsatilgan muddatda muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida e'lon qilingan sanadan boshlab 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay, Emitent Markaziy depozitariyga ko'rsatilgan sana holatiga ko'ra valyuta obligatsiyalarini egalari reyestrini shakllantirish to'g'risida topshiriqnoma taqdim etadi. Markaziy depozitariy reyestrni shakllantiradi va uni topshiriqnoma olingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay Emitentga taqdim etadi. Emitent reyestrni olgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay tegishli soliqlarni hisoblab chiqadi va to'laydi hamda chet el valyutasidagi pul mablag'larini Markaziy depozitariyning Agent bankda ochilgan tegishli valyuta hisobvarag'iga o'tkazadi. Markaziy depozitariy to'lov topshiriqnomasi olingan va pul mablag'lari kelib tushgan sanadan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay to'lovni amalga oshiradi.	– при резком изменении макроэкономической ситуации в стране, в том числе по обращению Центрального банка Республики Узбекистан, — на основании требования уполномоченного государственного органа в соответствии с пунктом 43 Положения №3826 от «29» апреля 2026 г. «О порядке выпуска, размещения, обращения и погашения облигаций, номинированных в иностранной валюте, в рамках специального правового режима «Регуляторная песочница» в сфере рынка капитала». Срок досрочного погашения в этом случае составляет не менее 3 (трёх) месяцев с даты направления требования; – в случае признания настоящего выпуска несостоявшимся или недействительным в соответствии с законодательством Республики Узбекистан. <i>Порядок и сроки:</i> Эмитент в течение 2 (двух) рабочих дней с даты получения указания (требования) о досрочном погашении публикует официальное уведомление на Едином портале корпоративной информации (www.openinfo.uz), на своём официальном веб-сайте (www.aab.uz) и на официальном веб-сайте РФБ «Ташкент» (www.uzse.uz) с указанием даты досрочного погашения. Процентный доход по облигациям настоящего выпуска начисляется за фактический период их обращения до даты наступления одного из вышеперечисленных событий. В указанных случаях не позднее чем за 10 (десять) рабочих дней с даты публикации информации о досрочном погашении Эмитент обязан выплатить всем владельцам облигаций настоящего выпуска номинальную стоимость облигаций и процентный доход, накопленный на дату наступления одного из вышеперечисленных событий. В указанный срок не позднее 1 (одного) рабочего дня с даты публикации о досрочном погашении Эмитент представляет в Центральный депозитарий поручение о формировании реестра держателей валютных облигаций по состоянию на указанную дату. Центральный депозитарий формирует реестр и представляет его Эмитенту не позднее 5 (пяти) рабочих дней с даты получения поручения. Эмитент не позднее 2 (двух) рабочих дней с даты получения реестра производит расчёт и уплату соответствующих налогов и перечисляет денежные средства в иностранной валюте на соответствующий валютный счёт Центрального депозитария, открытый в Банке-агенте. Центральный депозитарий осуществляет выплату не позднее 2 (двух) рабочих дней с даты получения платёжного поручения и поступления денежных средств.
--	---

	So'ndirish obligatsiyalarning barcha egalari uchun bir vaqtda amalga oshiriladi. Qisman to'lovlarni yoxud ayrim egalarga to'lovlarni boshqalarga qaraganda ertaroq yoki kechroq amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.	Погашение осуществляется одновременно для всех владельцев облигаций. Осуществление частичных выплат либо выплат отдельным владельцам ранее или позднее, чем другим, не допускается.
g)	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar amalga oshmagan va haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, emitent tomonidan obligatsiyalar to'lovi sifatida olingan mablag'larni qaytarish tartibi. <i>Shuningdek, qimmatli qog'ozlar chiqarilishining amalga oshmagan va haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni emitent tomonidan oshkor qilish tartibi ko'rsatiladi</i>	Порядок возврата средств, полученных эмитентом в качестве оплаты облигаций, в случае признания данного выпуска несостоявшимся и недействительным. <i>Также указывается порядок раскрытия эмитентом информации о признании выпуска ценных бумаг несостоявшимся и недействительным.</i>
	Ushbu chiqarilishni amalga oshmagan deb topish to'g'risidagi qaror vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadi. Ushbu chiqarilishni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi qaror vakolatli sud tomonidan qabul qilinadi Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha foizli daromad ularning chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb e'tirof etilgan sanaga qadar amalda muomalada bo'lgan davri uchun hisoblanadi. Emitent tomonidan bunday e'tirof etilgan sanadan keyin chiqarilish amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risida ma'lumot olingan taqdirda, ko'rsatilgan sanadan keyingi davr uchun hisoblangan foizli daromad obligatsiyalar egalarga tegishli bo'lgan yakuniy summani aniqlashda qayta hisoblanishi kerak. Emitent ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning barcha egalarga ularga tegishli bo'lgan obligatsiyalarning nominal qiymatiga teng summani, shuningdek, obligatsiyalar muomalasining haqiqiy davri uchun tegishli oraliq foiz davrida obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan sanagacha, obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan sanadan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida to'lashi shart. Emitent chet el valyutasidagi tegishli mablag'larni Markaziy depozitariyning Agent bankda ochilgan tegishli valyuta hisobvarag'iga, obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan sanadagi holatga ko'ra Markaziy depozitariy tomonidan shakllantirilgan obligatsiyalar egalarning reyestri asosida o'tkazadi. Markaziy depozitariy daromadlarni to'lash va obligatsiyalarni so'ndirish uchun obligatsiyalar egalarga pul mablag'larini ushbu Risolada nazarda tutilgan tartibda o'tkazadi. Obligatsiyalar chiqarilishini haqiqiy emas yoki amalga oshmagan deb topish to'g'risidagi ma'lumot tegishli qaror qabul qilingan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida e'lon qilinishi kerak: – Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz). – Emitentning rasmiy veb-saytida (www.aab.uz).	Решение о признании данного выпуска несостоявшимся принимается уполномоченным государственным органом. Решение о признании данного выпуска недействительным принимается компетентным судом. Процентный доход по облигациям настоящего выпуска начисляется за фактический период их обращения до даты признания выпуска несостоявшимся или недействительным. В случае получения Эмитентом информации о признании выпуска несостоявшимся или недействительным после даты такого признания, начисленный за период после указанной даты процентный доход подлежит перерасчёту при определении окончательной суммы, причитающейся владельцам облигаций. Эмитент обязуется выплатить всем владельцам облигаций настоящего выпуска сумму, равную номинальной стоимости принадлежащих им облигаций, а также причитающийся накопленный процентный доход за фактический период обращения облигаций в соответствующем промежуточном процентном периоде до даты признания выпуска несостоявшимся или недействительным, в течение 10 (десяти) рабочих дней с даты признания выпуска несостоявшимся или недействительным. Эмитент перечисляет указанную сумму на соответствующий валютный счёт Центрального депозитария, открытый в Банке-агенте, на основании реестра владельцев облигаций, сформированного Центральным депозитарием по состоянию на дату признания выпуска несостоявшимся или недействительным. Центральный депозитарий осуществляет перевод денежных средств владельцам облигаций в порядке, предусмотренном настоящим Проспектом для выплаты доходов и погашения облигаций. Информация о признании выпуска облигаций недействительным или несостоявшимся должна быть опубликована в течение 2 (двух) рабочих дней с момента принятия соответствующего решения: – На Едином портале корпоративной информации (www.openinfo.uz). – На официальном сайте Эмитента (www.aab.uz).

	– “Toshkent” Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz).	– На официальном сайте РФБ «Тошкент» (www.uzse.uz).
h)	Mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha ta'minot (mavjud bo'lgan taqdirda) haqidagi quyidagi ma'lumotlar: <i>ta'minot turi;</i> <i>pul ifodasidagi ta'minot miqdori;</i> <i>ta'minot taqdim etgan yuridik shaxsning to'liq nomi, joylashgan yeri va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR);</i> <i>ta'minot taqdim etgan jismoniy shaxsning F.I.O., yashash manzili va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR).</i> <i>Agar ikki yoki undan ortiq ta'minot turlari, shuningdek, ta'minot ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan taqdim etilgan bo'lsa, ularning har biri bo'yicha ma'lumotlar alohida ko'rsatiladi.</i>	Следующие сведения об обеспечении по облигациям данного выпуска (при его наличии): <i>вид обеспечения;</i> <i>размер обеспечения в денежном выражении;</i> <i>полное наименование, место нахождения и ИНН юридического лица, предоставившего обеспечение;</i> <i>Ф.И.О., адрес места жительства и ИНН физического лица, предоставившего обеспечение.</i> <i>Если предоставлено два или более вида обеспечения, а также если обеспечение предоставлено двумя или более лицами, сведения по каждому из них указываются отдельно.</i>
	Emitent obligatsiyalarining ushbu chiqarilishini ta'minlash ko'zda tutilmagan.	Обеспечение настоящего выпуска облигаций Эмитента не предусмотрено.
i)	Ta'minot sifatida taqdim etilgan mol-mulkni baholashga jalb qilingan baholovchi tashkilotlar to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar: <i>to'liq nomi va tashkiliy-huquqiy shakli;</i> <i>joylashgan yeri va aloqa ma'lumotlari;</i> <i>baholash faoliyatini amalga oshirishga doir sertifikatning raqami va berilgan sanasi;</i> <i>ta'minot sifatida taqdim etilgan mol-mulkni baholashga jalb qilingan tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaning sanasi va raqami.</i>	Следующие сведения об оценочных организациях, привлечённых для оценки имущества, представленного в качестве обеспечения: <i>полное наименование и организационно-правовая форма;</i> <i>место нахождения и контактные данные;</i> <i>номер и дата выдачи сертификата на осуществление оценочной деятельности;</i> <i>дата и номер договора, заключённого с организациями, привлечёнными для оценки имущества, представленного в качестве обеспечения.</i>
	Ushbu obligatsiyalar chiqarilishida ta'minot nazarda tutilmagan, shu munosabat bilan baholovchi tashkilot jalb qilinmagan.	Оценочная организация для определения стоимости имущества не привлекалась.
j)	Kafolat bergan bank to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar: <i>to'liq nomi va tashkiliy-huquqiy shakli;</i> <i>joylashgan yeri va aloqa ma'lumotlari;</i> <i>kafolat shartnomasining raqami va sanasi, shuningdek kafolat muddati va shartlari.</i>	Следующие сведения о банке, предоставившем гарантию: <i>полное наименование и организационно-правовая форма;</i> <i>место нахождения и контактные данные;</i> <i>номер и дата договора о гарантии, а также срок и условия гарантии.</i>
	Ushbu obligatsiyalar chiqarilishida bank kafolati ko'zda tutilmagan.	В данном выпуске облигаций банковская гарантия не предусмотрена.
	O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligining 28.06.2019-yildagi P0901-sonli qaroriga muvofiq (identifikatsiya raqami: RU301P0901R4), Bankning quyidagi parametrlarga ega bo'lgan obligatsiyalarining birinchi chiqarilishi ro'yxatdan o'tkazildi: Obligatsiyalarning ko'rinishi va turi: foizli, egasi nomi yozilgan, korporativ; Chiqarilish shakli: hujjatsiz; Bitta obligatsiyaning nominal qiymati: 1 000 000 (bir million) so'm; Obligatsiyalarning umumiy soni: 45 175 (qirq besh ming bir yuz yetmish besh) dona;	В соответствии с Решением Агентства по развитию рынка капитала Республики Узбекистан от 28.06.2019 № P0901 (идентификационный номер: RU301P0901R4), был зарегистрирован первый выпуск облигаций Банка со следующими параметрами: Вид и тип облигаций: процентные, именные, корпоративные; Форма выпуска: бездокументарная; Номинальная стоимость одной облигации: 1 000 000 (один миллион) сум; Общее количество облигаций: 45 175 (сорок пять тысяч сто семьдесят пять) штук;

	Chiqarilishning umumiy hajmi: 45 175 000 000 (qirq besh milliard bir yuz yetmish besh million) so'm; Muomala muddati: 2557 (ikki ming besh yuz ellik yetti) kun; Joylashtirish muddati: davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran 365 (uch yuz oltmish besh) kun; Foiz stavkasi: Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi + 4%; Hisoblangan va to'langan foiz daromadi summasi: 16 465 204 123,28 so'm; Qaytarib sotib olingan obligatsiyalar soni: sotib olish amalga oshirilmagan; Joylashtirilmagan obligatsiyalarning foizi va sabablari: joylashtirilmagan obligatsiyalar mavjud emas, chiqarilish to'liq hajmda joylashtirilgan; Majburiyatlarni bajarmaslik holatlari: mavjud emas; Obligatsiyalar muomalasini to'xtatib turish yoki qayta tiklash holatlari: mavjud emas; Joylashtirish usuli: ochiq obuna; Emissiya holati: chiqarilish so'ndirilgan.	Общий объем выпуска: 45 175 000 000 (сорок пять миллиардов сто семьдесят пять миллионов) сум; Срок обращения: 2557 (две тысячи пятьсот пятьдесят семь) дней; Срок размещения: 365 (триста шестьдесят пять) дней с даты государственной регистрации; Ставка вознаграждения: ставка рефинансирования Центрального банка + 4%; Сумма начисленного и выплаченного вознаграждения: 16 465 204 123,28 сум; Количество выкупленных облигаций: выкуп не осуществлялся; Процент неразмещенных облигаций и их причины: неразмещенные облигации отсутствуют, выпуск размещен в полном объеме; Случаи неисполнения обязательств: отсутствуют; Приостановление или возобновление обращения облигаций: отсутствует; Метод размещения: открытая подписка; Статус эмиссии: выпуск погашен.
31.	Joylashtirishdan keyin axborotni oshkor qilish to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar:	Следующие сведения о раскрытии информации после размещения:
a)	Moliyaviy harakatlar (defolt yoki to'lovlarning kechiktirilishi, moliyaviy kovenantlarning buzilishi, likvidlikning sezilarli darajada yomonlashuvi).	Финансовые события (дефолт или задержка платежей, нарушение финансовых ковенантов, существенное ухудшение ликвидности).
	Эмитент quyidagi moliyaviy hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni 2 (ikki) ish kuni ichida oshkor etish majburiyatini oladi: – texnik defolt fakti (kupon daromadini to'lash yoki obligatsiyalarning nominal qiymatini belgilangan muddatlarda to'lash bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi); – obligatsiya egalari to'lovlarni kechiktirish; – ushbu emissiya risolasida nazarda tutilgan bir yoki bir nechta moliyaviy kovenantlarning buzilishi; obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan Emitentning likvidlik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yomonlashishi.	Эмитент обязуется раскрывать информацию в течение 2 (двух) рабочих дней о следующих финансовых событиях: – факт технического дефолта (неисполнение обязательств по выплате процентного дохода и (или) погашению номинальной стоимости облигаций в установленные сроки); – задержка платежей держателям облигаций; – нарушение одного или нескольких финансовых ковенантов, предусмотренных Настоящим проспектом эмиссии; существенное ухудшение показателей ликвидности Эмитента, способное повлиять на исполнение обязательств по облигациям.
b)	Korporativ harakatlar (tartibga soluvchi organ funksiyalarining o'zgarishi, qayta tashkil etish yoki tugatish, rahbariyat tarkibidagi o'zgarishlar).	Корпоративные события (изменение функций регулирующего органа, реорганизация или ликвидация, изменения в составе руководства).
	Эмитент quyidagi korporativ hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish majburiyatini oladi: – tartibga soluvchi organing funksiyalari o'zgarganda; – Emitentning kuzatuv kengashi yoki ijroiya organi tarkibi va vazifalari o'zgarganda; – Emitentni har qanday shaklda qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish); – Emitentni tugatish to'g'risida qaror qabul qilish; – boshqaruv tuzilmasida obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa muhim o'zgarishlar.	Эмитент обязуется раскрывать информацию о следующих корпоративных событиях: – изменение функций регулирующего органа; – изменение состава и функций наблюдательного совета или исполнительного органа Эмитента; – реорганизация Эмитента в любой форме (слияние, присоединение, разделение, выделение, преобразование); – принятие решения о ликвидации Эмитента; – иные существенные изменения в структуре управления, способные повлиять на исполнение обязательств по облигациям.
c)	Tartibga solish va huquqiy harakatlar (litsenziyalarning to'xtatib turilishi yoki qaytarib olinishi, muhim sud nizolari, to'lovlarga nisbatan sanksiyalar yoki cheklovlar).	Регуляторные и правовые события (приостановление или отзыв лицензий, существенные судебные споры, санкции или ограничения в отношении платежей).
	Эмитент quyidagi tartibga solish va huquqiy voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish majburiyatini oladi:	Эмитент обязуется раскрывать информацию о следующих регуляторных и правовых событиях:

	– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyasining amal qilishini to‘xtatib turish yoki uni chaqirib olish; – talablar summasi Emitent aktivlariga nisbatan sezilarli miqdorni tashkil etadigan sud ishlarini qo‘zg‘atish; – vakolatli davlat organlari tomonidan obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta‘sir ko‘rsatadigan sanksiyalar yoki cheklovlar joriy etilishi.	– приостановление действия или отзыв лицензии Центрального банка Республики Узбекистан; – возбуждение судебных разбирательств, сумма требований по которым составляет существенную величину относительно активов Эмитента; – введение санкций или ограничений со стороны уполномоченных государственных органов, затрагивающих исполнение обязательств по облигациям.
d)	Chet el valyutasidagi obligatsiyalar bo‘yicha harakatlar (muddatidan oldin so‘ndirish, chiqarilish shartlarining o‘zgarishi, obligatsiya egalari yig‘ilishlarini o‘tkazish).	События по облигациям в иностранной валюте (досрочное погашение, изменение условий выпуска, проведение собраний держателей облигаций).
	Emitent obligatsiyalar bilan bog‘liq quyidagi hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor etish majburiyatini oladi: – 20-bandning “f” kichik bandida va uning shartlarida nazarda tutilgan muddatidan oldin so‘ndirish uchun asoslar yuzaga kelganda; – obligatsiyalarni chiqarish shartlariga o‘zgartirishlar kiritish; – obligatsiyalarni egalarning yig‘ilishlarini o‘tkazish, shu jumladan yig‘ilishlarning kun tartibi, o‘tkazilish sanasi, joyi va qabul qilingan qarorlar.	Эмитент обязуется раскрывать информацию о следующих событиях, связанных с облигациями: – возникновение оснований для досрочного погашения, предусмотренных подпунктом «б» пункта 20, и его условиях; – внесение изменений в условия выпуска облигаций; – проведение собраний держателей облигаций, включая повестку, дату, место проведения и принятые решения.
32.	Axborotni oshkor qilish tartibi va muddatlari:	Порядок и сроки раскрытия информации:
	Ushbu emissiya risolasining 31-bandida ko‘rsatilgan hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Emitent tomonidan tegishli hodisa yuz bergan (tegishli qaror qabul qilingan) sanadan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz), Emitentning rasmiy veb-saytida (www.aab.uz) va “Toshkent” RFBning rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) e‘lon qilish, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organiga xabarnoma yuborish orqali oshkor etiladi.	Информация о событиях, указанных в пункте 31 настоящего проспекта эмиссии, раскрывается Эмитентом не позднее 2 (двух) рабочих дней с даты наступления соответствующего события (принятия соответствующего решения) путём публикации на Едином портале корпоративной информации (www.openinfo.uz), на официальном веб-сайте Эмитента (www.aab.uz) и на официальном веб-сайте РФБ «Тошкент» (www.uzse.uz), а также путём направления уведомления в уполномоченный государственный орган по регулированию рынка ценных бумаг.
IV.	EMITENTNING BOSHQARUV VA IJRO ORGANLARI TO‘G‘RISIDAGI MA‘LUMOT	СВЕДЕНИЯ ОБ ОРГАНАХ УПРАВЛЕНИЯ И ИСПОЛНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНАХ ЭМИТЕНТА
33.	Emitent kuzatuv kengashi a‘zolari to‘g‘risidagi quyidagi ma‘lumotlar: <i>kuzatuv kengashi raisi va a‘zolarining F.I.O. (kuzatuv kengashida mustaqil a‘zo(a‘zolar) ko‘rsatilgan holda, mavjud bo‘lsa);</i> <i>kuzatuv kengashi a‘zolari saylangan sana va ularning oxirgi 5 (besh) yil davomidagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xronologik tartibda;</i> <i>kuzatuv kengashining har bir a‘zosiga tegishli bo‘lgan emitentning ovoz beruvchi aksiyalarining (ustav kapitalidagi ishtiroki ulushlarining) emitentning ovoz beruvchi aksiyalari (ustav kapitalidagi ishtiroki ulushlari) umumiy soniga foiz nisbati. Bo‘sh katakda emitent ma‘lumotlarni oshkor qilayotgan yillar ko‘rsatiladi.</i>	Следующие сведения о членах наблюдательного совета эмитента: <i>Ф.И.О. председателя и членов наблюдательного совета (с указанием независимых членов наблюдательного совета при их наличии);</i> <i>дата избрания членов наблюдательного совета и сведения об их трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке;</i> <i>процентное соотношение голосующих акций эмитента (долей участия в уставном капитале), принадлежащих каждому члену наблюдательного совета, к общему числу голосующих акций эмитента (долей участия в уставном капитале).</i> <i>В пустой ячейке указываются годы, за которые раскрываются сведения.</i>
	Raxmatov Xasan Utkirovich - Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan sana - 18.02.2025-yil. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko‘rsatilgan holda:	Рахматов Хасан Уткирович – Председатель Наблюдательного совета Дата избрания в состав Наблюдательного совета - 18.02.2025 г. Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности:

	– 2016-2024-yillarda: AT “Aloqabank” boshqaruvi raisining o‘rinbosari; – 2024-2025-yillar: “Poytaxt bank” AJ Boshqaruv raisi; – 2025-yildan “Milliy bank protsessing markazi” AJ maslahatchisi vazifasini bajaruvchi; – 2025-yildan “Fintechlab” MCHJ bosh direktori; – 2026-yildan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti.	– 2016-2024 г.: заместитель Председателя Правления АК «Алокабанк»; – 2024-2025 гг.: Председатель Правления АО «Пойтахт банк»; – С 2025 г. консультант АО «Национальный банковский процессинговый центр»; – С 2025 г. Генеральный директор ООО «Fintechlab»; – С 2026 г. Доцент Ташкентского государственного экономического Университета.
	Avazova Shaxnoza Rixsitillayevna - Kuzatuv kengashi a’zosi Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan sana - 18.02.2025-yil. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko‘rsatilgan holda: – 2020 – 2025 yillar “SHAHRAZ” MCHJ direktori; – 2025-yildan “ASIA ALLIANCE GROUP” MCHJ direktori.	Авазова Шахноза Рихситиллаевна – Член Наблюдательного совета; Дата избрания в состав Наблюдательного совета - 18.02.2025 г.; Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2020-2025 гг. директор ООО «SHAHRAZ»; – С 2025 г. директор ООО «ASIA ALLIANCE GROUP».
	Isakov Otabek Rustam o‘g‘li - Kuzatuv kengashi a’zosi Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan sana - 18.02.2025-yil. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko‘rsatilgan holda: – 2020-2023-yillarda: Moneff Fintech tashkilotida komplayens va AML bo‘yicha yetakchi tahlilchi; – 2023-yildan “Finasia Capital” Ltd ijrochi direktori.	Исаков Отабек Рустам ўғли – Член Наблюдательного совета Дата избрания в состав Наблюдательного совета - 18.02.2025 г. Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2020-2023 гг.: ведущий аналитик по комплаенсу и AML в Fintech-организации Moneff; – С 2023 г. исполнительный директор «Finasia Capital» Ltd.
	Akbarov Sherzod Rustamjonovich - Kuzatuv kengashi a’zosi Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan sana - 18.02.2025-yil. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko‘rsatilgan holda: – 2017-2026 yillar: Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari; – 2023-yildan Osiyo taraqqiyot bankining katta iqtisodchisi.	Акбаров Шерзод Рустамжонович – Член Наблюдательного совета Дата избрания в состав Наблюдательного совета - 18.02.2025 г. Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2017-2026 гг.: руководитель представительства Европейского банка реконструкции и развития в Узбекистане; – С 2023 г. старший экономист Азиатского банка развития.
	Tyons Karsten Bodo - Kuzatuv kengashi a’zosi Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan sana - 18.02.2025-yil. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan	Тёнс Карстен Бодо – Член Наблюдательного совета Дата избрания в состав Наблюдательного совета - 18.02.2025 г.; Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием

	lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko'rsatilgan holda: – 2015-2022-yillarda: "Commerzbank" ning Toshkentdagi vakolatxonasi direktori; – 2022-yildan "Global Textile Group Tashkent-Fergana" moliyaviy maslahatchisi; – 2022-yildan "Asia Alliance Bank" ATB Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi.	занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2015-2022 г.: директор представительства Commerzbank в Ташкенте; – С 2022 г. финансовый консультант Global Textile Group Tashkent-Fergana; - С 2022 г. Независимый Член Наблюдательного совета АКБ «Asia Alliance Bank».
34.	Emitentning kuzatuv kengashi qo'mitalari (mavjud bo'lgan taqdirda) to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qo'mitaning nomi, uning vazifa va funksiyalari hamda tarkibi.	Сведения о комитетах наблюдательного совета эмитента (при их наличии), а также наименование комитета, его задачи и функции и состав.
	Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirish, tegishli korporativ boshqaruv va ichki nazoratni ta'minlash maqsadida "Asia Alliance Bank" ATB Kuzatuv kengashi huzurida doimiy faoliyat yurituvchi qo'mitalar tashkil etildi. Audit qo'mitasi Bank moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi, ichki nazorat tizimining samaradorligi, ichki audit, risklarni boshqarish, shuningdek, tashqi auditor bilan o'zaro hamkorlik va auditorlik tekshiruvlari natijalari bo'yicha tavsiyalarining bajarilishini nazorat qilish bilan bog'liq masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi. Qo'mita tarkibi: Tyons Karsten Bodo - Qo'mita raisi; Isakov Otabek Rustam ugli - chlen Komiteta; Avazova Shahnoza Rixsitillayevna – Qo'mita a'zosi. Kadrlar va mukofotlash qo'mitasi Bankning kadrlar siyosatini shakllantirish, rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va baholash, ijro etuvchi organ a'zolari va boshqa asosiy xodimlarning mehnatiga haq to'lash va mukofotlash shartlarini belgilash, shuningdek Qo'mita vakolatiga kiritilgan korporativ boshqaruv masalalarini ko'rib chiqadi. Qo'mita tarkibi: Avazova Shaxnoza Rixsitillayevna - Qo'mita raisi; Isakov Otabek Rustam ugli - chlen Komiteta; Tyons Karsten Bodo – Qo'mita a'zosi.	В целях повышения эффективности деятельности Наблюдательного совета, обеспечения надлежащего корпоративного управления и внутреннего контроля при Наблюдательном совете АКБ «Asia Alliance Bank» созданы постоянно действующие комитеты. Комитет по аудиту осуществляет предварительное рассмотрение вопросов, связанных с достоверностью финансовой отчетности Банка, эффективностью системы внутреннего контроля, внутреннего аудита, управления рисками, а также взаимодействием с внешним аудитором и контролем исполнения рекомендаций по результатам аудиторских проверок. Состав комитета: Тёнс Карстен Бодо – Председатель Комитета; Исаков Отабек Рустам ўгли – Член Комитета; Авазова Шахноза Рихситиллаевна – Член Комитета. Комитет по кадрам и вознаграждениям рассматривает вопросы формирования кадровой политики Банка, подбора и оценки кандидатов на руководящие должности, определения условий оплаты труда и вознаграждения членов исполнительного органа и иных ключевых работников, а также вопросы корпоративного управления, отнесенные к компетенции Комитета. Состав комитета: Авазова Шахноза Рихситиллаевна– Председатель Комитета; Исаков Отабек Рустам ўгли – Член Комитета; Тёнс Карстен Бодо – Член Комитета.
35.	Emitentning kollegial (yakka) ijroiya organi to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar: <i>ijroiya organi funksiyalarini yakka tartibda amalga oshiruvchi shaxsning F.I.O. yoki kollegial ijroiya organi rahbari va a'zolarining F.I.O.;</i> <i>ijroiya organi funksiyalarini yakka tartibda amalga oshiruvchi shaxs yoki kollegial ijroiya organi a'zolarining vakolatlari ko'rsatilgan holda ular saylangan sana va ularning oxirgi 5 (besh) yil (yillar) davomidagi mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar xronologik tartibda;</i> <i>emitentning ijroiya organi funksiyalarini yakka tartibda amalga oshiruvchi shaxs yoki emitentning kollegial ijroiya organining har bir a'zosi tegishli bo'lgan emitentning ovoz beruvchi aksiyalarining (ustav kapitalidagi ishtiroki ulushlarining)</i>	Следующие сведения о коллегиальном (единоличном) исполнительном органе эмитента: <i>Ф.И.О. лица, единолично осуществляющего функции исполнительного органа, или Ф.И.О. руководителя и членов коллегиального исполнительного органа;</i> <i>дата избрания лица, единолично осуществляющего функции исполнительного органа, или членов коллегиального исполнительного органа с указанием их полномочий и сведения об их трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке;</i> <i>процентное соотношение голосующих акций эмитента (долей участия в уставном капитале), принадлежащих лицу, единолично осуществляющему функции исполнительного органа, или каждому члену коллегиального исполнительного органа;</i>

	<i>emitentning ovoz beruvchi aksiyalari (ustav kapitalidagi ishtiroki ulushlari) umumiy soniga foiz nisbati.</i> <i>Bo'sh katakda emitent ma'lumotlarni oshkor qilayotgan yillar ko'rsatiladi.</i>	<i>органа эмитента, к общему числу голосующих акций эмитента (долей участия в уставном капитале).</i> <i>В пустой ячейке указываются годы, за которые раскрываются сведения.</i>
	“Asia Alliance Bank” ATBning kollegial ijro etuvchi organi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi va ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vakolatlar doirasida Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qiluvchi Bank Boshqaruvi hisoblanadi. Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanada Bank Boshqaruvi a’zolari “Asia Alliance Bank” ATB ustav kapitalida ishtirok etish ulushlariga ega emas. <u>Bank Boshqaruvi a’zolari:</u> Abduazimov Umidjon Abduazim o‘g‘li - Boshqaruv raisi Boshqaruv tarkibiga saylangan (tayinlangan) sana - 2024-yil 20-may. Bank Boshqaruvi tarkibida amalga oshiriladigan vakolatlar: – Boshqaruv raisi sifatida Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi, Boshqaruv ishini tashkil etadi hamda Bank aksiyadorlari (yagona aksiyador) Umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosini ta’minlaydi. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko‘rsatilgan holda: 2014-2024 yillar: “Asia Alliance Bank” ATB Mirzo Ulug‘bek filiali boshqaruvchisi; 2024-yildan “Asia Alliance Bank” ATB Boshqaruvi raisi.	Коллегиальным исполнительным органом АКБ «Asia Alliance Bank» является Правление Банка, осуществляющее руководство текущей деятельностью Банка в пределах полномочий, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан, Уставом Банка и внутренними документами. По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии члены Правления Банка не владеют долями участия в уставном капитале АКБ «Asia Alliance Bank». <u>Члены Правления Банка:</u> Абдуазимов Умиджон Абдуазим угли - Председатель Правления Дата избрания (назначения) в состав Правления - 20.05.2024г. Полномочия, осуществляемые в составе Правления Банка: – в качестве Председателя Правления осуществляет руководство текущей деятельностью Банка, организует работу Правления и обеспечивает исполнение решений Общего собрания акционеров (единственного акционера) и Наблюдательного совета Банка. Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2014-2024 гг.: Управляющий Мирзо-Улугбекским филиалом АКБ «Asia Alliance Bank»; – С 2024 г. Председатель Правления АКБ «Asia Alliance Bank».
	Daniyelyan Gayane Feliksovna – “Asia Alliance Bank” ATB Boshqaruv a’zosi, Yuridik boshqarma boshlig‘i Boshqaruv tarkibiga saylangan (tayinlangan) sana - 29.05.2023-yil. Bank Boshqaruvi tarkibida amalga oshiriladigan vakolatlar: – Boshqaruv a’zosi sifatida Bankning joriy faoliyatini kollegial boshqarishda, Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalarni ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi, shuningdek Bank faoliyatini huquqiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko‘rsatilgan holda:	Даниелян Гаяне Феликсовна – Член правления, Начальник Юридического управления АКБ «Asia Alliance Bank» Дата избрания (назначения) в состав Правления - 29.05.2023г. Полномочия, осуществляемые в составе Правления Банка: – в качестве члена Правления участвует в коллегиальном управлении текущей деятельностью Банка, рассмотрении и принятии решений по вопросам, отнесенным к компетенции Правления, а также обеспечивает правовое сопровождение деятельности Банка. Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности:

– 2014 yildan Yuridik boshqarma boshlig'i. Qurbonov Umar Eshniyozovich - Boshqaruv a'zosi, Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i - Bosh buxgalter Boshqaruv tarkibiga saylangan (tayinlangan) sana - 05.02.2026-yil. Bank Boshqaruvi tarkibida amalga oshiriladigan vakolatlar: – Boshqaruv a'zosi sifatida Bankning joriy faoliyatini kollegial boshqarishda, Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi, shuningdek, Bankning buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotlarini tuzishni ta'minlaydi. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko'rsatilgan holda: – 2014-2024-yillarda: "Asia Alliance Bank" ATB Olmazor filiali bosh buxgalteri; – 2024-2025-yillar: "Asia Alliance Bank" ATB buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari; – 2025-2026-yillar: "Asia Alliance Bank" ATB Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i - bosh buxgalteri vazifasini bajaruvchi; – 2026-yildan "Asia Alliance Bank" ATB buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i - Bosh buxgalteri.	– С 2014 г. Начальник Юридического управления. Курбанов Умар Эшниёзович – Член Правления, Начальник управления бухгалтерского учета и отчетности - Главный Бухгалтер Дата избрания (назначения) в состав Правления - 05.02.2026г. Полномочия, осуществляемые в составе Правления Банка: – В качестве члена Правления участвует в коллегиальном управлении текущей деятельностью Банка, рассмотрении и принятии решений по вопросам, отнесенным к компетенции Правления, а также обеспечивает организацию бухгалтерского учета и составление финансовой отчетности Банка. Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2014-2024 гг.: Главный бухгалтер Алмазарского филиала АКБ «Asia Alliance Bank»; – 2024-2025 гг.: Заместитель начальника управления управления бухгалтерского учета и отчетности АКБ «Asia Alliance Bank»; – 2025-2026 гг.: И.о. начальника управления - главного бухгалтера Управления бухгалтерского учета и отчетности АКБ «Asia Alliance Bank»; – С 2026 г. Начальник управления бухгалтерского учета и отчетности - Главный Бухгалтер АКБ «Asia Alliance Bank».
Boltayev Ixtiyor – "Asia Alliance Bank" ATB Boshqaruv a'zosi, G'aznachilik boshqarmasi boshlig'i Boshqaruv tarkibiga saylangan (tayinlangan) sana - 29.05.2023-yil. Bank Boshqaruvi tarkibida amalga oshiriladigan vakolatlar: – Boshqaruv a'zosi sifatida Bankning joriy faoliyatini kollegial boshqarishda, Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi, shuningdek Bankning likvidlik, moliyaviy resurslar va g'aznachilik operatsiyalarini boshqarish sohasidagi faoliyatini tashkil etadi; Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko'rsatilgan holda: – 2021-2022-yillar: "Asia Alliance Bank" ATB Loyiha ofisi rahbari; – 2022-yildan "Asia Alliance Bank" ATB G'aznachilik boshqarmasi boshlig'i.	Болтаев Ихтиёр – Член Правления, Начальник Управления казначейства АКБ «Asia Alliance Bank» Дата избрания (назначения) в состав Правления - 29.05.2023г.; Полномочия, осуществляемые в составе Правления Банка: – В качестве члена Правления участвует в коллегиальном управлении текущей деятельностью Банка, рассмотрении и принятии решений по вопросам, отнесенным к компетенции Правления, а также организует деятельность Банка в сфере управления ликвидностью, финансовыми ресурсами и казначейскими операциями; Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2021-2022 гг.: Руководитель Проектного офиса АКБ «Asia Alliance Bank»; – С 2022 г. Начальник Управления казначейства АКБ «Asia Alliance Bank».
Mamanov Akmal Do'smuratovich - "Asia Alliance Bank" ATB Boshqaruv a'zosi, Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig'i.	Маманов Акмал Дусмуратович – Член Правления, Начальник управления комплаенс-контроля АКБ «Asia Alliance Bank»

	Boshqaruv tarkibiga saylangan (tayinlangan) sana - 05.02.2026-yil. Bank boshqaruvi tarkibida amalga oshiriladigan vakolatlar: – Boshqaruv a’zosi sifatida Bankning joriy faoliyatini kollegial boshqarishda, Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalarni ko’rib chiqish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi, shuningdek Bankning komplayens-nazorat tizimini tashkil etish va uning ishlashini ta’minlaydi. Oxirgi 5 (besh) yildagi mehnat faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlar xronologik tartibda, egallab turgan lavozimlari, ish joylari va mehnat faoliyatini amalga oshirish davrlari ko’rsatilgan holda: – 2019-2022-yillarda: “Asia Alliance Bank” ATB Moliyaviy monitoring boshqarmasi Moliyaviy tranzaksiyalarni nazorat qilish bo’limi bosh mutaxassisi; – 2022-2023-yillar: “Asia Alliance Bank” ATB Komplayens-nazorat boshqarmasi korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat bo’limi boshlig’i; – 2023-2024-yillar: “Asia Alliance Bank” ATB Komplayens-nazorat boshqarmasi Korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat bo’limi boshlig’i - boshqarma boshlig’i o’rinbosari; – 2024-2025-yillar: “Asia Alliance Bank” ATB Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig’i o’rinbosari; – 2025-yildan “Asia Alliance Bank” ATB Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig’i	Дата избрания (назначения) в состав Правления - 05.02.2026г.; Полномочия, осуществляемые в составе Правления Банка: – в качестве члена Правления участвует в коллегиальном управлении текущей деятельностью Банка, рассмотрении и принятии решений по вопросам, отнесенным к компетенции Правления, а также обеспечивает организацию и функционирование системы комплаенс-контроля Банка. Сведения о трудовой деятельности за последние 5 (пять) лет в хронологическом порядке с указанием занимаемых должностей, мест работы и периодов осуществления трудовой деятельности: – 2019-2022 гг.: Главный специалист отдела контроля финансовых транзакций Управления финансового мониторинга АКБ «Asia Alliance Bank»; – 2022-2023 гг.: Начальник отдела антикоррупционного комплаенс-контроля Управления комплаенс-контроля АКБ «Asia Alliance Bank»; – 2023-2024 гг.: Начальник отдела антикоррупционного комплаенс-контроля Управления комплаенс-контроля АКБ «Asia Alliance Bank» - заместитель начальника управления; – 2024-2025 гг.: Заместитель начальника управления Управления комплаенс-контроля АКБ «Asia Alliance Bank»; – С 2025 г. Начальник управления комплаенс-контроля АКБ «Asia Alliance Bank»
36.	Ichki nazorat haqidagi quyidagi ma’lumotlar:	Следующие сведения о внутреннем контроле:
	Ichki audit tizimi.	Система внутреннего аудита.
	“Asia Alliance Bank” ATBda korporativ boshqaruv, ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samaradorligini, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki me’yoriy hujjatlari talablariga rioya etilishini mustaqil va xolisona baholashni ta’minlaydigan ichki audit tizimi mavjud. Ichki audit funksiyalari Ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi, u tashkiliy jihatdan Bank Kuzatuv kengashiga hisobot beradi va O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy hujjatlari va Bankning ichki hujjatlari asosida faoliyat yuritadi. Ichki audit xizmati Bankning tarkibiy bo’linmalarida rejali va rejadani tashqari tekshiruvlar o’tkazadi, ichki nazorat tizimining ishonchliligini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini, xatarlarni boshqarish samaradorligini va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini baholaydi, shuningdek, o’tkazilgan	В АКБ «Asia Alliance Bank» функционирует система внутреннего аудита, обеспечивающая независимую и объективную оценку эффективности системы корпоративного управления, внутреннего контроля, управления рисками, а также соблюдения требований законодательства Республики Узбекистан и внутренних нормативных документов Банка. Функции внутреннего аудита осуществляются Службой внутреннего аудита, которая организационно подотчетна Наблюдательному совету Банка и действует на основании законодательства Республики Узбекистан, нормативных актов Центрального банка Республики Узбекистан и внутренних документов Банка. Служба внутреннего аудита проводит плановые и внеплановые проверки структурных подразделений Банка, оценивает надежность системы внутреннего контроля, достоверность бухгалтерского учета и финансовой отчетности, эффективность управления рисками и соблюдение внутренних процедур, а также осуществляет

	tekshiruvlar natijalari bo'yicha tavsiyalarning bajarilishini monitoring qiladi.	мониторинг выполнения рекомендаций по результатам проведенных проверок.
	Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi va komplayens tartib-taomillari.	Система управления рисками и процедуры комплаенса.
	“Asia Alliance Bank” ATBda bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni o'z vaqtida aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirishga qaratilgan kompleks xatarlarni boshqarish tizimi mavjud. Risklarni boshqarish tizimi kredit, bozor, foiz, valyuta, likvidlik, operatsion, huquqiy, komplayens-risk, axborot xavfsizligi riski va boshqa muhim risklarni qamrab oladi. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Xatarlarni boshqarish tizimining samaradorligini nazorat qilish Bankning Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi, Audit qo'mitasi va vakolatli tarkibiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bankda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga, shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi talablarga rioya etilishini ta'minlaydigan komplayens-nazorat tizimi mavjud. Komplayens tartib-taomillari komplayens xatarlarini aniqlash va baholash, qonunchilikning majburiy talablariga rioya etilishini nazorat qilish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish, sanksiya cheklovlariga rioya etish, ichki monitoring o'tkazish va Bank xodimlariga majburiy talablarga rioya etish masalalari bo'yicha maslahat berishni o'z ichiga oladi.	В АКБ «Asia Alliance Bank» действует комплексная система управления рисками, направленная на своевременное выявление, оценку, мониторинг и минимизацию рисков, возникающих в процессе осуществления банковской деятельности. Система управления рисками охватывает кредитный, рыночный, процентный, валютный, ликвидный, операционный, правовой, комплаенс-риск, риск информационной безопасности и иные существенные риски. Организация системы управления рисками осуществляется в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан, нормативными актами Центрального банка Республики Узбекистан и внутренними документами Банка. Контроль за эффективностью системы управления рисками осуществляют Наблюдательный совет, Правление Банка, Комитет по аудиту и уполномоченные структурные подразделения Банка. В Банке функционирует система комплаенс-контроля, обеспечивающая соблюдение требований законодательства Республики Узбекистан, нормативных актов Центрального банка Республики Узбекистан, внутренних нормативных документов Банка, а также требований в области противодействия легализации доходов, полученных преступным путем, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения. Процедуры комплаенса включают идентификацию и оценку комплаенс-рисков, контроль соблюдения обязательных требований законодательства, предотвращение конфликта интересов, реализацию антикоррупционных мероприятий, соблюдение санкционных ограничений, проведение внутреннего мониторинга и консультирование работников Банка по вопросам соблюдения обязательных требований.
37.	Emitentning ijroiya organi vazifasi topshirilgan tashkilot (agar emitent ijroiya organining vakolatlari boshqaruvchi tashkilotga o'tkazilgan bo'lsa) to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar: <i>boshqaruvchi tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq nomi, joylashgan yeri va aloqa ma'lumotlari;</i> <i>boshqaruvchi tashkilotning ijroiya organi funksiyalarini yakka tartibda amalga oshiruvchi shaxslarga yoxud boshqaruvchi tashkilotning kollegial ijroiya organi a'zolari va kuzatuv kengashi a'zolarining F.I.O.;</i> <i>boshqaruvchi tashkilotning ijroiya organi funksiyalarini yakka tartibda amalga oshiruvchi shaxslarga yoxud boshqaruvchi tashkilotning kollegial ijroiya organi a'zolari va kuzatuv kengashi a'zolariga tegishli bo'lgan emitentning ovoz beruvchi aksiyalarining (ustav kapitalidagi ishtiroki ulushlarining) emitentning ovoz</i>	Следующие сведения об организации, которой переданы функции исполнительного органа эмитента (если полномочия исполнительного органа эмитента переданы управляющей организации): <i>полное наименование управляющей организации, включая её организационно-правовую форму, место нахождения и контактные данные;</i> <i>Ф.И.О. лица, единолично осуществляющего функции исполнительного органа управляющей организации, или Ф.И.О. членов коллегиального исполнительного органа и членов наблюдательного совета управляющей организации;</i> <i>процентное соотношение голосующих акций эмитента (долей участия в уставном капитале), принадлежащих лицам, единолично осуществляющим функции исполнительного органа управляющей организации, либо членам коллегиального</i>

	<i>beruvchi aksiyalari (ustav kapitalidagi ishtiroki ulushlari) umumiy soniga foiz nisbati.</i>	<i>исполнительного органа и наблюдательного совета управляющей организации, к общему числу голосующих акций эмитента (долей участия в уставном капитале).</i>
	Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanada “Asia Alliance Bank” ATB ijroiya organining vakolatlari boshqaruvchi tashkilotga o‘tkazilmagan. Bank faoliyatiga joriy rahbarlik O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq kollegial ijro etuvchi organ - Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.	По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии полномочия исполнительного органа АКБ «Asia Alliance Bank» не переданы управляющей организации. Текущее руководство деятельностью Банка осуществляется коллегиальным исполнительным органом – Правлением Банка в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, Уставом Банка и внутренними документами Банка.
38.	Emitentning mazkur Risolasining 33, 35 va 37-bandlarida ko‘rsatilgan shaxslariga oxirgi 1 (bir) yil uchun to‘langan va berilgan mukofot va ish haqining, shuningdek imtiyozlarning summasi. <i>Bo‘sh katakda emitent ma‘lumotlarni oshkor qiladigan yillar ko‘rsatiladi.</i>	Сумма вознаграждений и заработной платы, а также льгот, выплаченных и предоставленных за последний 1 (один) год лицам, указанным в пунктах 33, 35 и 37 настоящего Проспекта. <i>В пустой ячейке указываются годы, за которые раскрываются сведения.</i>
	2025-yil uchun ushbu emissiya Risolasining 33-bandida ko‘rsatilgan shaxslarga mukofot, ish haqi va berilgan imtiyozlarning umumiy summasi 7 733 442 ming so‘mni tashkil etdi. 2025-yil uchun ushbu emissiya Risolasining 35-bandida ko‘rsatilgan shaxslarga mukofot, ish haqi va berilgan imtiyozlarning umumiy summasi 9 541 928 ming so‘mni tashkil etdi. 2025-yil uchun ushbu emissiya Risolasining 37-bandida ko‘rsatilgan shaxslarga mukofot, ish haqi va berilgan imtiyozlarning umumiy summasi 0,00 so‘mni tashkil etdi.	За 2025 год общая сумма вознаграждения, заработной платы и предоставленных льгот лицам, указанным в пункте 33 настоящего Проспекта эмиссии, составила 7 733 442 тыс. сум. За 2025 год общая сумма вознаграждения, заработной платы и предоставленных льгот лицам, указанным в пункте 35 настоящего Проспекта эмиссии, составила 9 541 928 тыс. сума. За 2025 год общая сумма вознаграждения, заработной платы и предоставленных льгот лицам, указанным в пункте 37 настоящего Проспекта эмиссии, составила 0,00 сумов.
39.	Emitentning 5 va undan ortiq foiz aksiyalari (ulushi)ga ega bo‘lgan aksiyadorlari (ishtirokchilari) to‘g‘risidagi quyidagi ma‘lumotlar: <i>aksiyadorning (ishtirokchining) F.I.O. va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (jismoniy shaxs uchun) (mavjud bo‘lganda);</i> <i>to‘liq nomi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR), joylashgan manzili (yuridik shaxslar uchun);</i> <i>kuzatuv kengashi har bir a‘zosisga tegishli emitentning ovoz beruvchi aksiyalarining emitent ustav kapitalidagi ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy hajmiga foiz nisbati;</i> <i>ta‘sischi yoki yirik aksiyador (ishtirokchi) emitentning ovoz beruvchi aksiyalarining 5 va undan ortiq foiziga yoki ustav kapitalidagi ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana.</i>	Следующие сведения об акционерах (участниках), владеющих 5 и более процентами акций (долей) эмитента: <i>Ф.И.О. акционера (участника) и персональный идентификационный номер физического лица (для физических лиц) (при наличии);</i> <i>полное наименование, ИНН, адрес места нахождения (для юридических лиц);</i> <i>процентное соотношение голосующих акций эмитента, принадлежащих каждому члену наблюдательного совета, к общему числу голосующих акций в уставном капитале эмитента;</i> <i>дата, с которой учредитель или крупный акционер (участник) стал владеть 5 и более процентами голосующих акций или долей участия в уставном капитале эмитента.</i>
	Mazkur Emissiya risolasini tasdiqlash sanasi holatiga ko‘ra, “Asia Alliance Bank” ATBning yagona aksiyadori (Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining 5 va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi) “ASIA ALLIANCE GROUP” mas’uliyati cheklangan jamiyati hisoblanadi. Unga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar miqdori: “Asia Alliance Bank” ATBning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalari umumiy sonining 100 (yuz) foizi. Mazkur Emissiya risolasini tasdiqlash sanasi holatiga ko‘ra, “Asia Alliance Bank” ATB ovoz beruvchi aksiyalarining 5 va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi boshqa aksiyadorlar mavjud emas.	По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии единственным акционером АКБ «Asia Alliance Bank», владеющим 5 и более процентами голосующих акций Банка, является Общество с ограниченной ответственностью «ASIA ALLIANCE GROUP». Размер принадлежащих голосующих акций: 100 (сто) процентов от общего количества размещенных голосующих акций АКБ «Asia Alliance Bank». Иных акционеров, владеющих 5 и более процентами голосующих акций АКБ «Asia Alliance Bank», по состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии не имеется.

40.	Emitentning boshqa affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlar.	Сведения об иных аффилированных лицах эмитента.
	Ushbu emissiya risolasi tasdiqlangan sanadagi holatga ko'ra, "Asia Alliance Bank" ATBning affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq oshkor etiladi. Bankning yagona aksiyadori, sho'ba korxonalari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu emissiya risolasining tegishli bo'limlarida keltirilgan. Quyidagilar Bankning boshqa affillangan shaxslari hisoblanadi: – "DILORAM HIMOYA" advokatlik byurosi; – "ZANGIOTA NAZARBEEK TRANS" mas'uliyati cheklangan jamiyati; – "NAZARBEEK" fermer xo'jaligi; – "UAS KIBRAY SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati; – "FIRDAVSBEK SOLIHAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati; – "BEKLAMISH" mas'uliyati cheklangan jamiyati.	По состоянию на дату утверждения настоящего Проспекта эмиссии сведения об аффилированных лицах АКБ «Asia Alliance Bank» раскрываются в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан. Сведения о единственном акционере Банка, дочерних обществах, членах Наблюдательного совета и Правления приведены в соответствующих разделах настоящего Проспекта эмиссии. Иными аффилированными лицами Банка являются: – Адвокатское бюро «DILORAM HIMOYA»; – Общество с ограниченной ответственностью «ZANGIOTA NAZARBEEK TRANS»; – Фермерское хозяйство «NAZARBEEK»; – Общество с ограниченной ответственностью «UAS KIBRAY SERVIS»; – Общество с ограниченной ответственностью «FIRDAVSBEK SOLIHAM»; – Общество с ограниченной ответственностью «BEKLAMISH».
41.	Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar:	Следующие сведения о конфликте интересов:
	Haqiqiy yoki potensial manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi.	Наличие реального или потенциального конфликта интересов.
	Bankda vijdonan, xolis va mustaqil qarorlar qabul qilinishini ta'minlash, aksiyadorlar, investorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, huquqiy, moliyaviy va obro'ga doir tavakkalchiliklarni minimallashtirishga qaratilgan Manfaatlarning to'qnashuvini tartibga solish siyosati amal qiladi. Ushbu siyosat Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a'zolari, Bank xodimlari va Bank nomidan qaror qabul qilishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Siyosatni amalga oshirish doirasida Bank quyidagilarni ta'minlaydi: Bank faoliyatini yuritishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va mavjud manfaatlar to'qnashuvini aniqlash; Bankning mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shaxsiy manfaatdorlik mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning majburiy tartibda va o'z vaqtida oshkor etilishi; aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini Bankning vakolatli bo'linmalari tomonidan ko'rib chiqish va baholash; manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish choralarini ko'rish, jumladan, manfaatdor shaxsning tegishli qarorlarni tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilishda ishtirok etishdan o'zini chetga olish; manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan holatlarning hisobini yuritish va qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat qilish;	В Банке действует Политика по урегулированию конфликтов интересов, направленная на обеспечение добросовестного, объективного и независимого принятия решений, защиту интересов акционеров, инвесторов, клиентов и иных заинтересованных лиц, а также на минимизацию правовых, финансовых и репутационных рисков. Политика распространяется на членов Наблюдательного совета, Правления, работников Банка и иных лиц, участвующих в принятии решений от имени Банка. В рамках реализации Политики Банком обеспечиваются: выявление потенциальных и фактических конфликтов интересов при осуществлении деятельности Банка; обязательное своевременное раскрытие сведений о наличии личной заинтересованности должностными лицами и работниками Банка; рассмотрение и оценка выявленных конфликтов уполномоченными подразделениями Банка; принятие мер по предотвращению и урегулированию конфликтов интересов, включая самоотвод заинтересованного лица от участия в подготовке, обсуждении и принятии соответствующих решений; ведение учета случаев возникновения конфликтов интересов и осуществление контроля за выполнением принятых решений; соблюдение требований конфиденциальности и недопущение использования инсайдерской и иной

	maxfiylik talablariga rioya etish hamda insayderlik va boshqa ommaviy bo'lmagan axborotdan shaxsiy yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab foydalanishga yo'l qo'yimaslik.	непубличной информации в личных интересах или интересах третьих лиц.
	Ularning oldini olish yoki minimallashtirish bo'yicha ko'riladigan choralar.	Принимаемые меры по его предотвращению или минимизации.
	Bankning boshqaruv organlari a'zolari va xodimlari Bank manfaatlarini ko'zlab, vijdonan va oqilona harakat qilishlari, manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'yimasliklari, ular yuzaga kelganda esa Bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli ma'lumotlarni darhol oshkor qilishlari shart. Siyosat talablariga rioya etilishini nazorat qilish komplayens-nazorat bo'linmasi, shuningdek Bankning boshqa bo'linmalari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimining samaradorligi Bankning ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimi doirasida muntazam ravishda baholanadi.	Члены органов управления и работники Банка обязаны действовать добросовестно и разумно, руководствуясь интересами Банка, не допускать возникновения ситуаций, способных привести к конфликту интересов, а при их возникновении незамедлительно раскрывать соответствующую информацию в порядке, установленном внутренними документами Банка. Контроль за соблюдением требований Политики осуществляется подразделением комплаенс-контроля, а также иными подразделениями Банка в пределах их компетенции. Эффективность системы управления конфликтами интересов регулярно оценивается в рамках системы внутреннего контроля и корпоративного управления Банка.
V.	EMITENTNING MOLİYAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI KO'RSATKICHLARI	ПОКАЗАТЕЛИ ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЭМИТЕНТА
42.	Emitent faoliyatining turlari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar:	Следующие сведения о видах деятельности эмитента:
a)	Asosiy faoliyat turi va ishlab chiqariladigan mahsulotlar (xizmatlar) turlari;	Основной вид деятельности и виды производимой продукции (услуг);
